### “Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	✓ yakka tartibdagи audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	✓ individual va guruhda ishslash; ✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy	✓ individual va guruhda ishslash;

muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	✓ yakka va guruhda ishslash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

### “Insert” metodi.

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilmlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

#### Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- “Tasviriy san’at” bo‘yicha yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, rangtasvir bo‘yicha o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishslashda tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgililar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“_” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar professor - o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.



## “Брифинг” методи.

“Briefing” - (ing. Briefing - qisqa) Rangtasvir bo‘yicha biror – bir masala yoki savolning muhokamasiga bag‘ishlangan qisqa press - konferensiY.

### O‘tkazish bosqichlari:

Briefinglardan trening yakunlarini tahlil qilishda foydalanish mumkin. Shuningdek, biror bir asarni chizishdan oldin bir shakl sifatida oldin chizilgan bior asar masalan: “Monaliza” portretini olaylik tinglovchilar bilan birga shu asar qachon va kim tomonidan yaratilganligi muhokama qilinadi va boshqa rassomlarni chizgan portretitahlil qilinadi. Talabalar yoki tinglovchilar tomonidan yaratilgan yangi asar taqdimoti o‘tkaziladi.

### “Portfolio” metodi.

“Portfolio” – ( ital. Portfolio - portfel, ingl. hujjatlar uchun papka) ta’limiy va kasbiy faoliyat natijalarini autentik baholashga xizmat qiluvchi zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan hisoblanadi. Portfolio mutaxassisning saralangan o‘quv - metodik ishlari, kasbiy yutuqlari yig‘indisi sifatida aks etadi. Jumladan, har bir tinglovchilarning modul yuzasidan o‘zlashtirish natijasini elektron portfoliolar orqali tekshirish mumkin bo‘ladi. Oliy ta’lim muassasalarida portfolioning quyidagi turlari mavjud:

Faoliyat turi	Ish shakli	
	Individual	Guruhiy
Ta’limiy faoliyat	Talabalar portfoliosi, bitiruvchi, doktorant, tinglovchi portfoliosi va boshq.	Talabalar guruhi, tinglovchilar guruhi portfoliosi va boshq.
Pedagogik faoliyat	O‘qituvchi portfoliosi, rahbar xodim portfoliosi	Kafedra, fakultet, markaz, OTM portfoliosi va boshq.

Har bir tinglovchi kurs mobaynida o‘zining shaxsiy portfoliosini kiritib boradilar.

### **III. NAZARIY MATERIALLAR**

#### **1-mavzu. Kompozitsiya va uslubning o‘zaro aloqasi. Kompozitsiyaning asar uslubi bilan bog‘liqligi (2 soat)**

Yaxlitlik qonuni. Kompozitsiyaning birinchi qonuni asarning yaxlitligi qonuni hisoblanadi. Badiiy asarning qonunan qurilgan yaxlitligini kompozitsiya aniqlab beradi. Kompozitsiyaning barcha unsurlari rassomning mantiqiy o‘y-fikrlarini birlashtirgan holda joylashadi. Biz buyumni yoki asarni kuzatar ekanmiz, avvalo uning umumiyo ko‘rinishiga e’tibor beramiz va bo‘laklarni bir-biriga taqqoslaymiz. Demak, asarning bir butunligi (yaxlitligi) kompozitsiyani tashkil etadigan barcha qismlarining o‘zaro bog‘liqligidir. Unsurlarning uyg‘unligi o‘zida kompozitsiyaning xususiyatlarini mujassamlashtiradi. Yaxlitlik tushunchasi kompozitsiya unsurlarining bir-biriga bevosita bo‘ysunishi kabi tushunchalar bilan bog‘liqdir. Bu qonun badiiy tasvirning hamma turlarining asosiy qonuni hisoblanadi. Yaxlitlik qonunini qo’llamasdan turib chizish ham, naturadan ishlash ham mumkin emas. Shakl ham, rang ham o‘z-o‘zicha paydo bo‘lmaydi, balki ular butunlik bilan munosabatda, butunning qismi sifatida ko‘rinadi. Kartinada chuqur o‘ylanmagan konstruktiv fikr bo‘lmasa, bo‘laklar xuddi yopishtirib ishlanganday bo‘ladi. Bunday holatda biz faqat alohida figuralarning o‘zinigina eslab qolamiz. Asarda butunlik bo‘lmaydi. Rassomlar kompozitsiyaning konstruktiv-fikriy tuzilishini topish uchun turli usullardan foydalanishadi. Ba’zi rassomlar kompozitsiyani tartib bilan o‘ylab topadi, ba’zilari esa oldin tasavvuriga nima kelsa o‘shani tartibsiz chizib tashlaydi, keyin esa undan yo‘l kursatuvchi konstruktiv fikr qidiradi. Mukammal kompozitsiyani yaratish rassom uchun murakkab yo‘l hisoblanadi. Shuning uchun ham mukammal yaratilgan kompozitsiyadagi bitta detalni olsak ham uning yaxlitligiga zarar yetadi. Bunday kompozitsiyaning barcha unsurlarining aloqasi aniq va mazmundor bo‘lganligidan unga qo’shimchalar kiritib va o‘zgartirib bo‘lmaydi. Kompozitsiyaning barcha unsurlarining o‘zaro aloqasi faqatgina mantiqan emas, balki uyg‘unlik yaratuvchi emotsiyonal estetik sifatlarga ega. Kompozitsiyaning yaxlitligi, aloqasi va bir-biriga bog‘liqligi muammosi kompozitsiya elementlarining takrorlanmasligi, turli-tumanligi vazifasi bilan uzilmas aloqadadir. Kompozitsiyada hech narsa takrorlanmasligi kerak. Uning kattaligi, dog‘i, intervallari, tipi, jesti ya’ni harakat belgisi ham takrorlanmasligi kerak. Ularning hammasi bir butun dog‘ yoki siluetga birlashishi o‘zbek rassomlari Abdulhak Abdullayev, Malik Nabihev portretlari, rus rassomlaridan M.Grekov, Surikov va Repin asarlarini olishimiz mumkin. Ko‘pgina rassomlar o‘zlarining ko‘p figurali asarlarini yaratib, ko‘p detallarini takrorlanmasligiga erishishgan. Asarda harakatni aniq tasvirlash uchun tasvirlanayotgan voqeani kulminatsion nuqtasini topish, ya’ni oldingi harakatning belgilarini va keyingi bo‘lajak voqealarni his qilish

va tasvirlash lozim. Asarda qonunning bu belgilarini bera olmaslik kompozitsiyaning qotib qolishiga olib keladi. Bunda hattoki dinamik holatda tursa ham harakatni faqat tashqi ko'rinishi tasvirlanadi. Mana shuning uchun ham rassom hayotni harakatda, yangining tuzilishi jarayonida qura olishi juda muhim. Ko'p figurali kompozitsiyaga nisbatan, bir figurali kompozitsiyada harakatni berish juda qiyin. Repinning "Kutmagan edilar" nomli asarida bir necha figura qatnashadi. Bu asarni tomosha qilgan kishi faqat tasvirlangan vaqtini emas, balki surgundan qaytgan kishi kirmasidan oldin ular nima ish qilib va qanday holatda o'tirganini ham tasavvur qila oladi. Uning pay do bo'lishi holati hozirgi holat sifatida his qilinadi. Chunki tasvirdagi boshqa barcha personajlar holatida oldingi harakat izlari saqlanib qolgan. Unda qari ona kresloni surgan holatda o'g'liga intilgani, xotini esa royal chalishdan to'htab, o'girilib qarab turgani tasvirlangan. Keyingi harakat esa tasvirlanmagan bo'lsa ham quvnoq shovqin-suronni, savol-javobni va quvonch ko'z yoshlarini his qilish mumkin. Bu asarda voqeanning kulminatsion nuqtasi aniq ko'rinish turibdi. Unda vaqt va harakat juda muvaffaqiyatlari berilgani uchun ham asar juda hayotiy chiqqan. Rassom Yu.I. Pimenov o'zining "Yangi Moskva va Kechagi ko'chadagi to'y" nomli asarlarida ham zamonaviy shaharni harakatda bera olish. Uni ko'rgan tomoshabin voqealar xuddi ko'z oldida bo'lib turgandek his qilinadi. Tipiklashtirish qonunining uchinchi belgisi uning yangiligidir. Realistik san'at hayotni faqat haqiqiy holatda tasvirlash bilan birga, rassomning oddiy kundalik hayotdan zavqlanishini, uni estetik his qilishni ham ko'rsatib bera oladi. Tasvirlanayotgan materialni estetik jihatdan o'zlashtirish - san'atning spetsifik xususiyatlaridan biridir. Bu estetik qarashlarsiz u o'ziga-o'zi qarshi chiqadi. Demak badiiy obraz o'zida estetik sifatlarni namoyon qilishi va kompozitsion yechimda yangilik yaratishi zarur. Haqiqatan ham biz Mikelendjelo, Titsian, Rembrandt. A.A.Deyneka, A.A.Plastov, o'zbek rassomlaridan R.Ahmedov, O.Tansiqboyev asarlarida biz dunyoni juda go'zal holatda ko'ramiz va his qilamiz

## **2-mavzu. Kompozitsiyaning badiiy ifodasi va uslubiy xususiyatlari. Uslub va kompozitsiya orqali san'at asarida muallifning niyatini ifodalash (2 soat)**

Qarama-qarshi munosabatlar (kontrast) qonuni. Kompozitsiyaning yana bir asosiy qonunlaridan biri bu qarama-qarshi munosabatlar (kontrast) qonunidir. Qarama-qarshi munosabatlar kompozitsiyaning ta'sirchan kuchini ko'rsatib beradi. Kompozitsiyada qaramaqarshi munosabatlarning ahamiyatini rassomlar qadimdan bilishgan, Leonardo da Vinchi o'zining "Rangtasvir haqidagi traktatlar" nomli asarida uzunlik kontrasti (uzun va past, semiz va ariq), xarakter, faktura, materiallar kontrasti to'g'risida yozib qoldirgan. Mikelendjelo o'z asarlarida hajm va yassilik kontrastlariga e'tibor bergan. U o'z asarlarida hajmli figuralarning ko'rinishini ozg'in figuralar yoki

yassilik orqali bo'rttirib ko'rsatgan. Inson o'z atrofidagi predmetlarni eng avvalo ularning siluetiga qarab ajrata olamiz. Bu esa tasviriy san'atda juda katta ahamiyatga ega. Predmetning shaklini inson undagi yorug' va soya kontrastiga qarab qabul qila oladi. Chunki yorug'-soyaning yo'qligi, yassilikni, hajmsizlikni keltirib chiqaradi. Masalan, portret san'atida rassomlar qadimdan tonlar kontrastidan foydalanishgan. Ular o'z asarlarida to'q rangli fonda yorqin figurani tasvirlashgan. XIX asrga kelib esa rassomlar portretda yorqin on qo'llay boshlashgan. V.A.Serovning "Shaftoli ushlagan qiz" nomli asarida yorqin fonda qizning yuzi yengil siluetda tasvirlangan. Rangtasvir asari issiq va sovuq ranglar kontrasti asosida quriladi. Rang kuchi uning yoniga qo'yilgan kontrast ranglar (qo'shimcha ranglar) orqali beriladi. Bular qizil-yashil, ko'k-zarg'aldoq - yashil, ko'kzarg'aldoq, oq qora va hokazo bo'lishi mumkin. Kompozitsiyada uzunlik kontrastlari (katta va kichik) va syujet tuzilishidagi kontrastlar (holat, psixologik) katta rol o'ynaydi. Monumental asarlar ham kontrastlar asosida quriladi. Bu yerda uzunlik kontrasti katta ahamiyatga ega. Masalan, monumentalist - haykaltaroshlar mayda shakllarni yirik monumentlar oyog'i ostiga qo'yishadi. Kompozitsiyada ideyani tasvirlash va syujetni qurilishida psixologik va holat kontrastlarini qo'llanilishi haqida Ye.A. Kibrik shunday deydi: "Kompozitsiyaning syujetini kurishda holatlarni qarama-qarshi qo'yish muhim ahamiyatga ega. Masalan, dehqon yoki turma" vagonida hibsga o'tirgan mahbusga perronda uchib yurgan ozod kabutarlar kontrast bo'la oladi. Kir, yirtiq-yamoq kiyimlardagi ishchi bilan yaxshi kiyingan fabrikant ham kontrastni bera oladi. Shunday qilib kompozitsiyada kontrastlar universal rol o'ynaydi. Ular kompozitsiyada ideyaning konstruktiv xarakteridan boshlab, syujet qurilishiga katta ta'sirqiladi. Kompozitsiyadagi barcha qonun va vositalarning uning fikriy g'oyaviy mazmuniga bog'liqligi qonuni. Bu qonunga asosan rassom yaxlit, ta'sirchan, fikriy- g'oyaviy jihatdan juda mazmundor san'at asari yaratadi. Chunki kompozitsiyaning tuzilishi barcha qismlari va detallari bilan formalistik sxemaga ega emas, balki uning fikriy mazmuniga asoslanishi kerak. San'at asari ustida ishlar ekan rassom uning kompoziyatsiyasi orqali o'zini tasvirlaydi, unga ma'naviy va estetik jihatdan baho beradi. Bu holatlar rassomning eng yuqori fikri va g'oyasi bo'lishi mumkin. Shunday qilib, rassom o'zining fikri va g'oyasini kompozitsiya orqali bera olsa bu badiiy asarga aylanadi. Aks holda bu ob'ektiv real borliqni fotografik ko'chirish yoki mazmun va mohiyatdan holi bo'lган tasvirga aylanadi. Bu qonun hajmlar munosabatini (soni va sifati), rang, yorug'lik, ton va shakl, shuningdek ritm va plastikasini berishi, harakat yoki nisbiy tinchlik holatini, simmetriya va assimmetriyasini hisobga olishni talab qiladi. U kartina o'lchamiga barcha shakllarning nisbiy o'lchamini, kompozitsiyaning syujet markazini boshqa qismlariga nisbatini aniqlashtirishni talab qiladi.

**3-mavzu. Klassik va zamonaviy kompozitsion uslublar. Klassik san'atda  
kompozitsiya va uslubi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik  
(2 soat)**

Asarda yaxlitlik taassuroti hosil bo'lishi uchun qismlar va elementlarning o'lchamlari nisbatlarning garmonik uyg'unligini keltirib chiqarishi lozim. Bu vazifalar rassomning fikriy-g'oyaviy mazmuniga mos holda yechilishi zarur. Shunday asarlar qatoriga M.B. Grekovning "Tachanka" asarini kiritishimiz mumkin. Bu qonuning mazmun va mohiyatidan ko'rinish turibdiki asar yaratuvchi rassom kuchli aqlga, qaynoq yurakka va chuqur fikr bildirishga qodir inson bo'lishi lozim. Shuning uchun ham rassom uchun katta dunyoqarashga ega bo'lishi juda zarur. Xulosa qilib shuni aytilib o'tish lozimki, yuqoridagi qonunlarga rassom faqat o'z munosabatini bildirsaga, tomoshabinga tushunarli bo'lgan asar yaratishi mumkin emas. Chunki tasviriy san'atning asosiy vazifalaridan biri bu insonlar orasidagi muomala vositasi bo'lib xizmat qilishdan iboratdir. Yuqorida keltirib o'tilgan qonunlar abstraktsionizm va naturalizmga juda begonadir. Nazariya amaliyotini kerakli bilimlar bilan qurollantiradi, aniqroq qilib aytganda asrlar davomida rassomlar tomonidan to'plagan boy materialni sistemali ravishda san'atga qaytaradi. San'at nazariyasi, rassomning yoshlik davridan boshlab shakllangan dunyoqarashi kabi juda katta ahamiyatga ega. Kompozitsyaning qoidalari, priyomlari va vositalari kompozitsyaning badiiy ahamiyat va nazariyaning rivojlangan qonun-qoidalari va vositalari mavjud. Quyida asar yaratish jarayonida musavvirga yordam beruvchi asosiy qoidalari va vositalar haqida kengroq to'xtalib o'tmoqchimiz. Albatta insonning o'zida hech qanday ijodiy qobiliyat yoki qiziqish bo'lmasa uni hech qanday qonun, qoidalari va vositalar bilan to'ldirib bo'lmaydi. Qobiliyatli rassomlar to'g'ri kompozitsion yechimni o'zining hissiyot va sezgisi orqali topadi, lekin bu qobiliyatni rivojlantirish uchun nazariyani ko'proq o'rganib, uni amaliyotda qo'llab ko'proq mehnat qilish lozim. Kompozitsiya yuqorida aytib o'tganimizdek aniq qonunlar asosida quriladi. Uning qoidalari, priyomlari va vositalari esa butun ish jarayonida qo'llaniladi. Ular badiiy asarning yaxlitligi va ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Rassomning fikri taassurotini yoritib beruvchi badiiy vositalaming qo'llanilishi va original kompozitsion yechimni topish kompozitsyaning tasviriy asosi hisoblanadi. Kompozitsyaning qoidalari quyidagilarga ajratish mumkin: harakat (dinamika)ni berish, tinchlik (statika, oltin kesim 1/3). Kompozitsyaning priyomlariga ritm, simmetriya va assimmetriya, muvozanat va syujetli - kompozitsion markazni aniqlash kiradi. Kompozitsyaning vositalari quyidagilardan iborat: format, masofa, kompozitsion markaz, ritm, kontrast. Yorug'-soya, rang, dekorativlik, dinamika va statika simmetriya va assimmetriya, ochiqlik va yopiqlik, yaxlitlik va hokazo. Shunday qilib, kompozitsiya vositalari, bu kompozitsiyani yaratishda zarur bo'lgan barcha narsalar, shu bilan birga ularning

qatoriga kompozitsiyaning qoidalari va priyomlarini ham kiritamiz. Ular turli tuman. Biz bu yerda eng asosiyлari to'g'risidagina ma'lumotlarni berdik. Ritm. Hammaga ma'lumki, ritm - bu tabiatning universal xususiyatidir. Masalan, kun va tun, yil fasllari siklik ravishda o'zgarib turadi, hayvonlar, o'simliklar va materiallarning rivojlanish jarayoni aniq ketma-ketlikka ega. Lekin hayot va san'atdagi ritm bir hil emas. San'atda ritm va ritmlik aktsentlarda uzilish, notenglik, noaniqlik bo'lishi mumkin. Musiqadagi kabi tasviriy san'atda ham ritmlar faol, uzuq-yuluq, tekis, xotirjam, sekinlashgan ritmga ajratiladi. Ritm - bu qandaydir elementlarni ma'lum bir ketma-ketlikda joylashishidir. Rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, dekorativ san'atda ritm kompozitsiyaning muhim tasviriy vositasi sifatida qatnashadi. U faqat tasvirni ko'rishdagina qatnashib qolmay, balki asarga aniq emotsiyonallik bahsh etadi. Ritm chiziqlar, dog'lar, yorug'lik va soya, rang orqali berilishi mumkin. Kompozitsiyada bir-hil elementlar takrorlanib keladi, masalan odamlar qomati, ularning qo'li yoki oyog'i va hakozo. Natijada ritm hajmlar kontrasti asosida quriladi. Ritmlar dekorativ - amaliy san'atda muhim rol o'ynaydi. Turli-tuman bezaklardagi ko'plab kompozitsiyalar elementlarining aniq ritmik ketma-ketligida qurilgan. Ritm tekislikda harakatni bera oluvchi vositalardan biridir. Nimaga ritm harakatni ko'rsata oladi? Bu bizning ko'ruv organizmining xususiyati bilan bog'liq. Bizning nigohimiz bitta tasviriy elementdan o'ziga o'hshash boshqa elementga tushar ekan, o'zi ham harakatda qatnashadi. Masalan. Biz suv to'lqiniga qarar ekanmiz, nigohimiz bitta to'lqindan ikkinchisiga o'tadi va ularning harakati illyuziyasi hosil bo'ladi. Tasviriy san'at musiqa va adabiyotdan farqli ravishda fazoviy san'at guruhiga kiradi, vaqt va masofada harakatning rivojlanishi uning asosi hisoblanadi. Tabiiyki biz harakatni tekislikda berish haqida gapirganda, albatta uning illyuziyasini ko'zda tutamiz. Rassomlar kartinada ob'ektlar harakati illyuziyasini yaratish, uning xarakteri to'g'risida juda ko'p vosita va priyomlarni bilishadi.

#### **IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERİALLARI**

##### **1-mavzu. Zamonaviy san'atda kompozitsiyaning yangi yondashuvlari.**

##### **Kompozitsion uslubni shakllantiruvchi tarixiy va madaniy omillar.**

**(2 soat)**

Quyida biz ulardan bir nechtasini ko'rib chiqamiz. Harakatni bilish qoidasi. Quyidagi sharoitlarda ob'ektlar kartinada xuddi harakatlanayotgandek ko'rindi: Agar kartinada harakat yo'nalishi bo'yicha bitta yoki bir nechta diogonal chiziqlardan foydalanilsa; Agar harakatlanayotgan ob'ekt oldida bo'sh masofa qoldirsak; Agar harakatni xarakterni juda aniq ochib beruvchi kerakli kulminatsiya tanlansa. Bundan tashqari harakatni faqat bir momentini emas, balki uning harakatlarini bosqichma-

bosqich bersak ham tasvir harakatlanayotganga o'hshab ko'rindi. Masalan, qadimgi Misr releflarida har bir figura aniq bir holatda qotib qolgan, lekin kompozitsiyani aylana holatida tomosha qilsak harakat ketma-ketligini ko'rishimiz mumkin. Bunda tasvir harakatlanayotganga o'hshab ko'rindi. Asarni yaxlit holda tomosha qilsakgina harakatni sezishimiz mumkin, harakatning bo'lak momentlarida u sezilmaydi. Harakatlanayotgan ob'ektning oldidagi ochiq masofa harakatni fikran davom ettirish imkoniyati tugdiradi. Aks holda ob'ekt qogoz sathining chekkalariga juda yaqin qilib tasvirlansa, xuddi harakat to'htab qolgandek tuyuladi. Shuningdek harakatni rasmdagi chiziqlarning yo'nalishi orqali ham berish mumkin. Masalan, barcha chiziqlar qog'oz sathining chuqurligiga yo'nalgan. Bunda qahramonni eng kuchga to'lgan vaqtini tasvirlasak harakatning ta'sirchanligi ortadi. Shu bilan birga harakat hissini ob'ektning silliq bo'yalgan foni noaniq konturlari ham berishi mumkin. Fondagi qo'llagan vertikal va gorizontal chiziqlar harakatni to'htatib qo'yadi. Harakat yo'nalishini o'zgarishi esa harakatni tezlashtiradi yoki sekinlashtiradi. Statikani berish qoidasi. Quyidagi sharoitlarda kompozitsiya static hisoblanadi. Agar kartinada diagonal yo'nalishlar yo'q bo'lsa; Agar ob'ektlar tinch (statik) pozada tasvirlangan bo'lsa, harakatning kulminatsiyasi bo'lmaydi; Agar kompozitsiya simmetrik, muvozanatda yoki oddiy geometrik sxemalar (uchburchak, aylana, oval, kvadrat, to'g'ri to'rtburchak) asosida qurilgan bo'lsa. Tinchlik hissi san'atning asarida yoki boshqa sharoitlarda paydo bo'lishi mumkin. Masalan, K.Korovinning "Qishda" kartinasida diagonal yo'nalishlarning ko'pligiga qaramay, changi qo'shilgan ot tinch turibdi, undagi harakat quyidagi sabablarga ko'ra sezilmaydi: kartinaning kompozitsion va geometrik markazi bir-biriga mos, kompozitsiya muvozanatda va otning oldidagi ochiq sathda daraxt tasvirlangan. Syujetli - kompozitsion markazni aniqlash. Rassom kompozitsiya yaratish ekan, kartinada eng asosiysi nima bo'lishini va bu asosiy syujetni ya'ni "mazmun markazi" deb ataluvchi syujetli - kompozitsion markazni qanday ajratib ko'rsatish to'g'risida o'ylashi lozim.

Albatta syujetda hamma narsa bir xil muhim va ikkinchi darajada turuvchi qismlar asosiyo syujetga bo'ysunadi. Kompozitsyaning markazi asosiyo harakat b ilan unda qatnashuvchi asosiyo shaxslarni o'ziga bog'laydi. Asardagi kompozitsion markaz o'ziga diqqatni jalb etishi lozim. Markaz rang, yorug'lik, tasvirni yiriklashtirish, kontrast va boshqa vositalari bilan ajaratiladi. Kompozitsiya markazi faqat rangtasvir asarlaridagina emas, balki grafika, haykaltaroshlik, dekorativ san'at, me'morchilikda ham ajratiladi. Masalan, Uyg'onish davri rassomlari kompozitsiya markazi xolstning markazida turishini xohlashgan. Bosh qahramonni holstning markazida tasvirlash orqali rassomlar uning syujet uchun muhim rol uyg'onishini ta'kidlamoqchi bo'lishgan

## **2-mavzu. Kompozitsiyadagi rang, shakl va hajmning badiiy ta'siri. Ranglar orqali kompozitsiyada uslubiy niyatni ifodalash**

### **(2 soat)**

Kompozitsiyaning qoidalari, priyomlari va vositalari kompozitsiyaning badiiy ahamiyat va nazariyaning rivojlangan qonun-qoidalari va vositalari mavjud. Quyida asar yaratish jarayonida musavvirga yordam beruvchi asosiy qoidalari va vositalar haqida kengroq to'xtalib o'tmoqchimiz. Albatta insonning o'zida hech qanday ijodiy qobiliyat yoki qiziqish bo'lmasa uni hech qanday qonun, qoidalari va vositalar bilan to'ldirib bo'lmaydi. Qobiliyatli rassomlar to'g'ri kompozitsion yechimni o'zining hissiyot va sezgisi orqali topadi, lekin bu qobiliyatni rivojlantirish uchun nazariyani ko'proq o'rganib, uni amaliyotda qo'llab ko'proq mehnat qilish lozim. Kompozitsiya yuqorida aytib o'tganimizdek aniq qonunlar asosida quriladi. Uning qoidalari, priyomlari va vositalari esa butun ish jarayonida qo'llaniladi. Ular badiiy asarning yaxlitligi va ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Rassomning fikri taassurotini yoritib beruvchi badiiy vositalaming qo'llanilishi va original kompozitsion yechimni topish kompozitsiyaning tasviri asosi hisoblanadi. Kompozitsiyaning qoidalarini quyidagilarga ajratish mumkin: harakat (dinamika)ni berish, tinchlik (statika, oltin kesim 1/3). Kompozitsiyaning priyomlariga ritm, simmetriya va assimmetriya, muvozanat va syujetli - kompozitsion markazni aniqlash kiradi. Kompozitsiyaning vositalari quyidagilardan iborat: format, masofa, kompozitsion markaz, ritm, kontrast. Yorug'-soya, rang, dekorativlik, dinamika va statika simmetriya va assimmetriya, ochiqlik va yopiqlik, yaxlitlik va hokazo. Shunday qilib, kompozitsiya vositalari, bu kompozitsiyani yaratishda zarur bo'lgan barcha narsalar, shu bilan birga ularning qatoriga kompozitsiyaning qoidalari va priyomlarini ham kiritamiz. Ular turli tuman. Biz bu yerda eng asosiyлari to'g'risidagina ma'lumotlarni berdik. Ritm. Hammaga ma'lumki, ritm - bu tabiatning universal xususiyatidir. Masalan, kun va tun, yil fasllari siklik ravishda o'zgarib turadi, hayvonlar, o'simliklar va materiallarning rivojlanish jarayoni aniq ketma-ketlikka ega. Lekin hayot va san'atdagi ritm bir hil emas. San'atda ritm va ritmlik aktsentlarda uzilish, notenglik, noaniqlik bo'lishi mumkin.

Yaxlitlik qonuni. Kompozitsiyaning birinchi qonuni asarning yaxlitligi qonuni hisoblanadi. Badiiy asarning qonunan qurilgan yaxlitligini kompozitsiya aniqlab beradi. Kompozitsiyaning barcha unsurlari rassomning mantiqiy o'y-fikrlarini birlashtirgan holda joylashadi. Biz buyumni yoki asarni kuzatar ekanmiz, avvalo uning umumiyo ko'rinishiga e'tibor beramiz va bo'laklarni bir-biriga taqqoslasmiz. Demak, asarning bir butunligi (yaxlitligi) kompozitsiyani tashkil etadigan barcha qismlarining o'zaro bog'liqligidir. Unsurlarning uyg'unligi o'zida kompozitsiyaning xususiyatlarini mujassamlashtiradi. Yaxlitlik tushunchasi kompozitsiya unsurlarining bir-biriga bevosita bo'ysunishi kabi tushunchalar bilan bog'liqidir. Bu qonun badiiy tasvirning hamma turlarining asosiy qonuni hisoblanadi. Yaxlitlik qonunini

qo'llamasdan turib chizish ham, naturadan ishlash ham mumkin emas. Shabl ham, rang ham o'z-o'zicha paydo bo'lmaydi, balki ular butunlik bilan munosabatda, butunning qismi sifatida ko'rindi. Kartinada chuqur o'ylanmagan konstruktiv fikr bo'lmasa, bo'laklar xuddi yopishtirib ishlanganday bo'ladi. Bunday holatda biz faqat alohida figuralarning o'zinigina eslab qolamiz. Asarda butunlik bo'lmaydi. Rassomlar kompozitsiyaning konstruktiv-fikriy tuzilishini topish uchun turli usullardan foydalanishadi. Ba'zi rassomlar kompozitsiyani tartib bilan o'ylab topadi, ba'zilari esa oldin tasavvuriga nima kelsa o'shani tartibsiz chizib tashlaydi, keyin esa undan yo'l kursatuvchi konstruktiv fikr qidiradi. Mukammal kompozitsiyani yaratish rassom uchun murakkab yo'l hisoblanadi. Shuning uchun ham mukammal yaratilgan kompozitsiyadagi bitta detalni olsak ham uning yaxlitligiga zarar yetadi. Bunday kompozitsiyaning barcha unsurlarining aloqasi aniq va mazmundor bo'lganligidan unga qo'shimchalar kiritib va o'zgartirib bo'lmaydi. Kompozitsiyaning barcha unsurlarining o'zaro aloqasi faqatgina mantigan emas, balki uyg'unlik yaratuvchi emotsiyal estetik sifatlarga ega. Kompozitsiyaning yaxlitligi, aloqasi va bir-biriga bog'liqligi muammosi kompozitsiya elementlarining takrorlanmasligi, turli-tumanligi vazifikasi bilan uzilmas aloqadadir. Kompozitsiyada hech narsa takrorlanmasligi kerak. Uning kattaligi, dog'i, intervallari, tipi, jesti ya'ni harakat belgisi ham takrorlanmasligi kerak. Ularning hammasi bir butun dog' yoki siluetga birlashishi o'zbek rassomlari Abdulhak Abdullayev, Malik Nabihev portretlari, rus rassomlaridan M.Grekov, Surikov va Repin asarlarini olishimiz mumkin. Ko'pgina rassomlar o'zlarining ko'p figurali asarlarini yaratib, ko'p detallarini takrorlanmasligiga erishishgan. Asarda harakatni aniq tasvirlash uchun tasvirlanayotgan voqeani kulminatsion nuqtasini topish, ya'ni oldingi harakatning belgilarini va keyingi bo'lajak voqealarni his qilish va tasvirlash lozim. Asarda qonunning bu belgilarini bera olmaslik kompozitsiyaning qotib qolishiga olib keladi.

### **3-mavzu. Shabl va hajmning kompozitsiyadagi badiiy rolini tahlil qilish. Rang, shabl va hajmning badiiy ifoda vositalari sifatida ishlatilishi (2 soat)**

Nuqta - bu ob'yekt, boshqa ob'yektlarga nisbatan hech shubhalanmasdan hajmlari kichik.

Nuqta (tasvirda) - tekislikda imkon boricha minimal shabl, minimal grafik element.

Nuqta quyuq yoki uncha sezilmaydigan, shaklning noaniqlik munosabati bilan - yirik yoki kichik bo'lishi mumkin. Nuqtani masshtabda kengaytirilishi dog'ni paydo bo'lishiga olib keladi.

Nuqta fazoviylikdagi o'rnini belgilaydi. Nuqtaning bo'yi ham, kengligi ham, chuqurligi ham yo'q deb qabul qilish hisoblangan, shuning uchun u statik va

harakatsizdir.

Shaklning ilk generatori sifatida, ikki chiziqning yoki burchakning yuqori, hajmnning yoki tekislik chizig'ining kesishgan joyining oxiri deb belgilash mumkin.

Odatda nuqtaning dog' ko'rinishida, yumaloq konturda, qaysiki fonga nisbatan juda kichik tasvirlanadi (chiziladi). Biroq, nuqta sifatida va boshqa yetarli darajada kichkina va ixcham elementlar va har qanday shakl ob'yektida foydalanish mumkin.

Nuqta kompozitsiya fazoviyligida element sifatida - tushunchaga nisbatan va umumiy fikrga va kenglilik bilan moslashtiriladi. Nuqta va fon orasida vizual keskinlik paydo bo'ladi. Nuqta tekislikda grafik aktsent sifatida ajratiladi.

Nuqta o'zining kichik hajmiga qaramasdan, kompozitsiyani qurishda juda ham keng imkoniyatlarga egalik qiladi. Aksar ko'p hollarda u qurishning markazi hisoblanadi.

Nuqta hoshiya markazida yoki fazoviylikda bo'lib, doimiydir va harakatsizdir va u o'zining atrofida boshqa elementlarni uyuştirishi mumkin. Hattoki uni siljitsa ham, u o'zining markazda bo'lish qobiliyatini saqlab qoladi, ammo nisbatan dinamik shakllanib boradi.

Nuqta asosida paydo bo'lган shakllar - aylana va sfera ham nuqtaning o'ziga xos markazda bo'lish qobiliyatiga egadirlar.

Nuqtani, kompozitsion muhit sifatida ko'rib chizilganda, u o'ziga tomoshabinlar e'tiborini fokusga to'g'irlashi mumkin. Bularning barchasi uning kompozitsiyada namoyon bo'ladigan xususiyatlariga boqliq bo'ladi:

- tekislikda joylashtirish;
- hajmga nisbatan;
- siluetga;
- to'ldirishning zichligi;
- ravshanlik, yorug'lik va boshqalar;

Agar nuqta bu vositalardan o'zining xususiyatiga qarab keskin farqlansa, u kompozitsiyada xiyla ko'proq ajratib ko'rsatiladi. Bordiyu, unga yaqinlashilsa, uning dominantali ahamiyati pasayadi. O'shanda u bir qator boshqa vositalarni, umumiy kompozitsianing ahamiyatli qismiga teng keladiganini kiritadi.

Nuqtaning badiiy xususiyati to'g'ridan-to'g'ri chiziqlar xususiyati bilan, dog' va rang, bir butun garmonik tashkil etilgan, grafik tekislik bilan bog'lanadi.

### CHIZIQ.

Cho'zilgan nuqta chiziqqa aylanadi. Nazariy jahatdan chiziq faqat bir ko'lamga - uzunasiga ega.

Chiziq - aniq yo'nalish bo'yicha, ya'ni grafik rivojlanishning elementar modelida, nuqtalarning ketma-ket tashkil etilganligi, element.

Garchi chiziq uzunligining dominantasi vizual bo'lsa ham, uning qalinligi

bo'lishi ham kerak, boshqacha qilib aytganda uni ko'rish mumkin bo'lmaydi. Ularni yaqqol ko'rindigan shakllar, chiziqlarni qalinligi va xarakteri bo'yicha aniqlanadi. Ular qalin va ingicha, aniq va yumshoq, qayrilma va siniq bo'lishi mumkin.

Chiziqlar tasvirida quyidagi sifatlarga egadirlar:

uzunligi bo'yicha (cho'zilgan) - uzun va qisqa;

qalinligi bo'yicha (qalin va ingichka);

vertikal va gorizonal nuqtai nazariga qarab qayd qilish (gorizontal, vertikal, nishabli);

egilganlik darajasi (to'g'ri va qiyshiq)

plastikali (sindirilgan yoki bukiluvchan, "qat'iylik", "jonli" va hokazo);

fakturali va teksturali (yumshoq va aniq)

Chiziqning fazoviy-dinamik sifati - harakatning faolligi va yo'nalishi (osoyishta, dinamiklik va hokazo), fazoviylik rejasi bilan aloqadorligi.

### **Chiziq turlari.**

**To'g'ri chiziq** cho'ziluvchi, ikki nuqta orasida mavjud bo'lganlikni ifoda etadi.

**Gorizontal chiziqlar** barqarorlikni, harakatsizlikni yoki tekislikni, ya'ni biz to'xtab turadigan yoki yuradigan chiziqnini ifodalaydi.

**Vertikal chiziq** gravitatsiya kuchiga nisbatan tenglik holatini assotsiyalashi mumkin. To'g'ri chiziqdagi muhim xarakteristikasi uning yo'nalishidir.

**Diagonal chiziqlar**, gorizontallikdan yoki vertikallikdan og'ishi ko'tarilish yoki pasayishi sifatida qaralishi mumkin, ular harakatni ifoda etadi va vizual juda ham faol va dinamikdir. U shu qadar, vertikal kabi faol emas va gorizontal kabi passivdir.

Ular orasida bo'lish va doimo gorizontalikda, diagonalda ko'tarilishda, passivlikni yengib, kurashish hissiyotini chaqiradi. Bu aniq ifoda etilganlikda, diagonalga nisbatan vertikalga yaqinlashtiradi.

Diagonalning ikki tipi ajratiladi: - o'ng (past chap burchakdan yuqori o'ng burchakka) va chap.

O'ng diagonal anchagina jadal harakat taassurotini va chapga nisbatan hissiyotli ta'sirini yuzaga keltiradi. Kuzatish davomida, o'ng diagonalni o'rganib, biz beixtiyor ko'zimizni yuqoriga ko'taramiz.

Chap diagonalni ko'rib chiqish vaqtida, biz "sirg'alishni" va nihoyat diagonal asos harakatining to'xtashini his etamiz.

Chap va o'ng diagonalarni qabul qilish shartlilikdagi farqi va hissiyotli xarakteristikasi: ko'tarilish diagonalni va pasayish diagonalni.

Diagonal, boshqa har qanday to'g'ri chiziqlar, bir maromdagagi harakatning taassurotini tug'diradi.

Egri chiziqlar og'ishganlik bilan harakatning turli orientir olishi, yon kuchlarning ta'sir etilishini chaqiruvchanligi bilan ifodalaydi. Egri chiziqlar sekin harakat bilan assotsiyalanadi

Qanday orientir olishdan qat'iy nazar ular ma'naviy ko'tarilish, barqarorlik va yerga bog'liqlikni ifoda etadi. To'g'ri chiziqlarni farqlashda biz teng bo'lman harakatlarni uchratamiz. Bu harakatni ko'zning silliq joyi tez va osoyishta qabul qiladi. Keskin aylana ko'zni to'xtashiga majbur etadi va shuningdek sekinlashgan harakatning his tuyg'usini chaqiradi.

Ayniqsa egri qiyshiq chiziqning, ko'tarilish diagonaliga mos ravishda ajratishga amal qilmoq kerak. Chiziq, bir butun yuqoriga ko'tarilishi, pastdan egikdir.

Bu ikki kuch o'rtaсидаги kurashish taassurotini beradi: og'irlilik kuchi va ko'tarilish kuchi. Egilib, qiyshiqlikda og'irlilik kuchini yengandek, uning ostidan ozod etilgandek bo'ladi va yuqoriga intilib, yengib bo'lamaydigan kuchlarni va harakatlarni mujassamlashtiradi.

Chiziqli elementlar har qanday vizual konstruktsiyalarini shakllantirishda juda muhimdir. Chiziqsiz biz predmetlarning tashqi ko'rinishini ajrata olmas edik. Chiziqlar, shuningdek predmetlarning o'rabi turgan muhitning ajratib turuvchi chegarasini belgilaydi. Bundan tashqari, ular ifodali xususiyatlar konturini to'ldiradi.

Chiziqlar predmetlar tashqi ko'rinishi belgilashdan tashqari, ular tekislik tomonlarini va hajmlar burchagini ham ifodalaydi.

Shaklli chiziqlar vertikallikni va gorizontallikni yaratish uchun qo'llaniladi, cho'ziqlikni va harakatni fazoviylik orqali, fazoviylik hajmlar ^flarim ^gar^ashm ifoda etadi.

Chiziqlar kompozitsiyasida ko'pincha ular o'rtaсидаги elementlarni tartibga solish maqsadida va kompozitsiya tizimining bir butunligini yaratish uchun qo'llaniladi.

#### **4-mavzu. Badiiy tahlilda kompozitsiyaning strukturaviy jihatlari (2 soat)**

Ritm bu elementlarning vaqtida va fazoviylikdagi qonuniyatlarga asoslanib almashinuvni.

Ritm - badiiy asarni tashkil etishdagi muhim vositadir; kompozitsiyada biologik ehtiyoj bilan bog'liq barchasi ritmga bo'ysinish kerakligi.

Ritm - harakat shakli va materiyaning organik o'ziga xos xususiyatidir. Barchasi, nima harakatlansa, rivojlansa, tabiatga va inson faoliyatiga - ritmga

bo'ysunib ishlaydi.

Yurak urishining, nafas olishning kunduz va kechaning va yil vaqtining, quyilish va pasayishning almashinuvidagi ritmlar. Barcha yuksak turli tuman tabiat ritmlari inson hayotiga uyushtirliganligiga ta'sir etuvchi, uning faoliyatidagi barcha harakatlarga, mehnat bilan dam olishni almashinivi bilan boshlanib va san'at asarida badiiy shaklni ritmik tashkil etish bilan tugallangan bo'lib ko'rindi.

San'atda ritm, obraz asosi sifatida, tashkil etish va estetik funktsiyani bajaradi. U formal strukturada, ko'proq adekvat va intensiv, boshqa badiiy vositalarga nisbatan harakatni tashkil etadi. Uning harakati grafikada kompozitsiya xususiyatlari, tonal kontrastlar, shakl va hajmlar kontrastlari bilan ta'minlanadi.

Ritm ko'rinishning aktiv tomonlarini ifoda etadi va idrok qilishda aktivatordir.

Klassik aniqlashda, ritm (grekchadan rheo - teku)- qandaydir elementlarni muayyan ketma-ketligi, tezlik, tez-tez takrorlanishda sodir bo'ladigan almashinuv.

Asarlar komponentlarini bo'lishda, u ularni, dinamik yaxlitlik hissini tashkil etib birlashtiradi. Kompozitsiyada elementlar almashinuvi estetik ochiqlik hissini beradi.

Turli tuman hislarning ritmik almashinuvi ijobiy hissiyotni chaqiradi. Holatning uzoq bir xilligi yoki bir turdag'i, monoton taassurot, aksincha, psixikani qiynaydi.

Ritmik yo'naltirilganlik - umumiy fazoviy orientir olish yoki kompozitsion elementlarning umumiy yo'nalishi. Agar kompozitsiyada ritmik asosiy yo'nalish vertikal yoki gorizontal bo'lsa, ritm xarakteri esa faraz qilingan hajmiy, bir tekis, dinamik-emotsionallik holatini tasdiqlaydi. Agarda kompozitsiyada ritmik yo'nalish diagonal yoki radial (shu'lasimon) bo'lsa, e^{n+1} esa - dinamik, aktiv, intiluvchandir.

Ritmik yurish - intervallarni aniqlash orqali urg'u beruvchi elementlarning almashinuvi - pauzalar, bo'shliqlar (musiqadagi analog - ritmik tasvir).

Intervalda elementlar orasidagi masofani metrik qadamlar, bunday bir xil qadamlarning ketma-ketligi - metrdir. Ille!^ qancha keng bo'lsa (katta metrik qadamga nisbatan), harakatning tezligi shuncha kamdir ^mp), intervalga nisbatan (kichik metrik qadamga nisbatan), temp shuncha tezdir.

Ritmik yurish teng va teng emas. Ritmik yurishning asta^{n+1} tanaffusi dinamik effektni kuchaytiradi.

Metrik qaytarilishdan farqi qonuniylik, ya'niki ritm tashkil etilgan, astasekinlikda miqdorni o'lchashda birqator almashinadigan elementlarni kuchayib borishi yoki elementlarning o'lishi, hajmlari yoki maydonni, tizimni, ton kuchi ifoda etiladi.

Buni shunday tushuntirish mumkinki, ritmik qator kompozitsion harakat

shaklida topshiriladi va dinamiklikni ko'rsatish bilan va kompozitsion muvozanat bilan bog'liq.

Ritmik qatoming ortib borish tartibini, elementlar hajmini, ulaming to'yinganlini o'zgartish, kompozitsining dinamikligini kuchaytirish yoki kuchsizlantirish mumkin

Ritm ko'z bilan qabul qilishning shunday xususiyati bilan, xuddi ko'zning harakati qator o'zgartirishidagi oshib borayotgan yo'naliшga bog'liqdek. Bizning ko'zimiz ritmik qatorni qurish qonuniyatidan bilinarli arang chekinishga juda ham sezgir javob beradi.

Ritm shaklida beriladigan dinamiklik, elementlar qatorining o'zgarish tartibi birikishining buzilishida bo'lishi mumkin. Ritm yordamisiz erishilgan, dinamiklik, masalan shaklga aerodinamik xarakter berish yo'li orqali, bir me'yorda va shu kompozitsion usulda o'zgarish mumkin (shaklning turli darajadagi kam qarshilikka uchrashi).

Ritmdan foydalanishga qurilgan dinamiklik, bir necha variantlarga ega bo'lishi mumkin emas. Tanlangan ritm me'yorida o'zgartirishlar mumkin emas, chunki bir elementning o'zgarishi yoki qator tomonga qadam qo'yish bir butunlikni va dinamiklikni muqarrar ravishda yo'qolishiga olib keladi.

Ritm sust ifodalanishi mumkin, qachonki almashinuv o'zgartirilsa yoki elementlarning o'zi kam sezilsa, lekin u bir munkha o'tkir bo'lishi mumkin, asosiy ibtido va kompozitsiyaning asosiy g'oyasi ham bo'lishi mumkin.

Ko'p narsa ritmik qatorning masofasiga bog'liq bo'ladi. Haddan tashqari qisqa qator o'ziga tashkiliy rolni olish imkoniga ega emas. Ritmik qator eng ko'pi bilan mo'ljallangan to'rt-besh qatorga ega bo'lishi mumkin, shunday bo'lsa ham bir necha ishlarda, metrik asosida bo'lgandek, ritmik qatorlar ham uchta element bilan tashkil etilishi mumkin deb ko'rsatilgan.

Ritmning alohida varianti, faqat qaytarilish qonuniyatidan foydalanishi, metr nomini olgan.

Metr - teng elementlarning takrorlanishidan yuzaga kelagan, eng oddiy tartib. U musiqada o'xshaydigan taktlarning almashinuviga xos.

Takrorlanish shaklni qabul qilishni yengilashtiradi, uni aniq va ravshan qiladi. Metrik kompozitsining eng katta cho'zilish monoton ko'rinishda bo'lishi mumkin. Monotonlikni yo'qotishda quyidagilar yordam beradi:

turlicha qurilgan kompozitsiyada bir necha qatorlarning uyg'unligi;  
elementlar guruhini metrik qatorga ajratish;  
guruhi orasidagi masofani o'rnatish;  
metrik qatorni urg'u berish bilan "jonlantirish"  
takrorlanuvchi elementlarning alohida xususiyatini o'zgartirish.

Metrik qurishda monotonlikni yo'qotishda, uni ritm bilan yoki oddiy - shaklni ritmlashtirish eng ko'p faol vositalardan biridir.

## **5-mavzu. Kompozitsiyaning elementlarini tahlil qilishda uslubiy yondashuvlar (2 soat)**

Oddiy sezgirlikka ta'sirlanishdan boshlab va qiyin psixologik kechinmalarda tugallangan ijobiy va salbiy hissiyotlar, inson hayoti faoliyatidagi barcha sferalarda, biologik past darajada qanday yashasa, xuddi shunday yuqori ma'naviy faoliyatda ham normal imkon tug'diradi.

Hissiyotlar uyg'unlik tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir, chunki tabiatda va ijtimoiy hayatda uyg'un boshlanish (shuningdek san'atda ham), inson uchun ijobiydir va uning hissiyotlari bilan "taqdirlanadi"

Insonning yuqori ijtimoiy ehtiyoji asosida vujudga kelgan, turg'un hissiyotlarni, asosan tuyg'u deb ataydilar. Shunday deyish mumkinki, ya'nii badiiy asarni hissiyotli idrok qilishda turlicha darajalar bordir: pastki - pertseptsiyaning biologik darajasi va yuqori, san'atning qiyin ko'p ahamiyatli harakatida, insonning yuqori ma'naviy savollariga javob beradiganda amalga oshishi.

Ushbu tamoyil kompozitsiyaning tushinarli va teran ochilishi aniq badiiy g'oyani ifoda etadi. Bunday ochilish istalgan dizaynerlik, va boshqa har qanday badiiy faoliyatga yo'naltirilgan.

Shakl tarzida ifodalangan obraz uning teran ma'naviy mazmunni, hissiyotli qiladi.

### ***Obraz***

Obrazli shakl tomoshabinga utilitar oddiy shakldan ko'ra, xiyla kuchli va teran hissiyot-estetik ta'sir etadi. Obrazli mazmun shaklda qanchalik yorqin va teran ochilgan bo'lsa, uning badiiy ifodaliligi darajasi shunchalik bog'liq bo'ladi. Asosiysi - bu shaklning obrazli tuzilishidagi uyg'unlik.

Badiiy shakldagi har bir obraz murakkab, qarama-qarshi-ikki taraflama xarakterga egadir. U quyidagi umumiy, qarama-qarshi, mazmuni bo'yicha, tarkibi bo'yicha yig'iladi:

ob'yektivligi va sub'yektivligi;

umumiy va ayrim;

ratsionalligi va hissiyotli;

mazmunan va rasman;

Bu juftliklar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Obrazning ob'yektiv mazmunida shakl to'g'risida ob'yekt voqeligi sifatida

ideal tassavvur etish. U absolyut xarakterga ega, ushbu ob'yektga tegishli bo'lган ко'плаб инсонлар ва маданий-хис-туйг'ули ан'ана асосида вужудга келган. Бундай обрзлarning мазмuni инсонning alohida fikriga bog'liq emas.

Обрзning sub'yekтив мазмuni бадиий шакллар сабабли sub'yekтив ijodiy g'oyani ifoda etadi. U tomoshabin shaklni qanday qabul qilishning har bir fikriga nisbatan xarakteriga ega.

Idrok qilishda ham va ijodiy aktda ham obraz sub'yekтивdir.

Qarama-qarshilikni bartaraf qilish va ob'yekтивлик va sub'yekтивлик обрзлар мазмuni орасидаги farq va uning uyg'unlashtirishda ma'no bor yoki kompozitsiyada обрзлilik tamoyiligiga rioya qilish.

Dizaynerlik shakldagi обрзда shartlilikning turlicha darajasiga ega, tasvirdan tortib, унга yaqin bo'lган tabiiy predmetgacha va juda shartli va abstrakt simvollargacha. Bu shartlilik шакллар мазмuni bilan yoki, ya'ni ular bajargan shunday funktsiyalar bilan aniqlanadi (shuningdek va badiiylikda).

Agar funktsiyalar ta'minlashni nazarda tutsa, avvalambor barcha ko'rgazmali, обрзни ravshan tushinib, шакл tasvirga maksimal yaqinlashadi. Tezlikka va aniqlikka erishishda uni uzoq masofadan idrok qilish, masalan шакл iloji boricha shartli qilinadi.

Ikkala funktsiyani effektiv bajarish uchun (tezlikni idrok qilish va tushunchaning aniqligi) ko'rgazmali va shu bilan birga oddiy, lo'nda шакл talab etiladi. U обрзли qayta ishlash tamoyiliga yoki shunchaki обрзлilikka mos keladi.

Dizaynda обрзни ochishda eng muhim xususiyati - uning ob'yektda moddiy mujassamligi yoki shaklni predmetli-moddiylik yaratilishidir.

Spetsifik xususiyati kuchiga va qo'llanilayotgan materialning texnologiyasi bu шаклда shartli-obrзli xarakterga ega.

Шакл qanchalik ifodali bo'lsa, unda qo'llanilayotgan material shu qadar badiiy yorqin namoyon bo'ladi. Xuddi shunday, обрз ham material orqali шаклда o'zining shartli yorqinligini akslantiradi.

O'ziga xoslik va shu bilan birga шаклning обрзли talqin qilinishida tipik moment - uning uslubga oid xarakterini ochadi. U шаклда vaqt chegarasining uslubga oid shartlanishi bilan ifodalanadi.

Шакллар, o'zlarida bu chegarani ko'tara olmay, ruhan tezda charchaydilar.

Uslubiy uyg'unlikka erishish - o'ziga xos dizayndagi, шаклда обрзни ochish, kompozitsion topshiriqda eng muhimdir.

Idrok qilish xususiyatlari

Ko'rish orqali idrok qilish ob'yekt xususiyatini umumiy tizimdan ajratishdan boshlanadi.

Avvalambor predmetlarning va fazoviylikning munosabati idrok etiladi. Shundan so'ng predmetlar orasidagi munosabat o'rganiladi, undan keyin predmetlarning detallari orasidagi munosabatlar o'zlashtiriladi. Va yaxlitlik haqida aniq tassavurga erishiladi.

Bunday ko'rish orqali idrok etish xususiyati kompozitsion qurishda tartibga solishni idrok etishni ta'minlash maqsadida hisobga olinadi.

Shaklni idrok etish organizmdagi u yoki bu biologik ehtiyoj bilan bog'liq.

R. Arnxeym shunday deb yozadi: "Inson odatdagi o'ziga xos biologik ehtiyojni orientir olish uchun unga aniqlik va oddiylik zarur; vazminlik uchun va to'g'ri harakatlanishda - umumiylilik va tenglik; qiziqtirish uchun - xilma-xillik va diqqat- e'tibor zarur.

Bu ehtiyojlar bir biridan yaxshi bo'lган shakllarda qoniqtiriladi.

Kvadrat va aylana, oddiylik va tenglilik.

To'g'ri uchburchaklar 2:1 o'zaro munosabati bilan qo'rquvni uyg'otadi, ya'ni 2 kvadratga parchalanadi. "Oltin kesim" munosabatida (misol 5:8) diqqat-e'tibor umumiylilik muvaffiqiyatli uyg'unlashadi.

Ma'lum kompozitsion usul - butun raqamni cheklangan guruh raqamiga va guruhlashdirilgan elementlarga ochish, ya'ni shunday uslub bilan ketma-ket yaqinlashish butunlikni o'zlashtiradi.

Bu uslub idrok etishni fizologik ostonasida borligida shartlidir, bizning ongimiz bir vaqtning o'zida 5-7tadan kam bo'lman elementlarni yoki bir vaqtida guruhlarni idrok etishi mumkin (Miller qonuni).

Elementlarning ko'p miqdorida, shakl butun sifatida qabul qilinmaydi va bo'lingandek ko'rindi.

"Tashkil etishga", "guruhashga" talab, ya'ni ob'yektni tanish, inson psixikasining xususiyati hisoblanadi.

Ko'z qidiradi, ong esa ularni "konfiguratsiyasi"ni ajratadi (tashqi ko'rinish) va "elementlarni" guruhashlaydi (Guruhash qonuniyati shundan iboratki, shaklni tashkil etadigan, elementlar bir-biriga qanchalik yaqin bo'lsa, ularni shunchalik oson ajratiladi).

Guruhash elementlarning bir-biriga nisbatan fazoviy qanchalik yaqin joylashtirilganligiga bog'liq bo'ladi:

qanchalik ular bir-biriga miqdoriy yaqin (shakllarning o'xshashligi va boshqalar);

"davom etishga" intilish, mantiqan element joylashgan o'rnidan boshlanishi, yaxlitlik obrazining tanish bo'lган konturiga intilish;

yopiq shakllarga intilish (tarqoq elementlar, o'zaro bog'lanmagan chiziqlar yopiqlikka va shaklni tashkil etishga intiladi).

## **6-mavzu. Kompozitsiyada simmetriya va asimmetriya: uslubiy jihatlar.**

### **Simmetriya va asimmetriya kompozitsiyadagi badiiy ta'sir (2 soat)**

Guash bo'yog'ida ishslashning yo'llari

Guash bo'yog'i akvarel bo'yog'ining tamoman aksi bo'lib, u kabi tiniq, jarangdor tus bermaydi. Ranglari yorug'likni yuttanligi sababli uning tagidagi qog'oz ko'rinish, sezilib turmaydi. Tarkibi esa akvarelniki singari - bo'yoq kukuni va u ni bog'lovchi moddalardan iborat. Ammo ular maxsus yog'och elimi bilan mo'tadil nisbatlarda aralashtirilgan bo'ladi. Guash bo'yog'ining yana bir muhim jihatni uning oq bo'yoq bilan aralashtirib ishlatilishidir. SHuning uchun uning ranglari unchalik jarangdorlik kasb etmaydi. Bo'yoqni ishlatish uchun mo'yqalamlar ham maxsus tanlanib olinadi va ular juda yumshoq bo'lmasisligi, bir oz dag'alroq bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Tasvir ishlanadigan sath, ya'ni qog'oz yoki karton ham silliq bo'lmagani yaxshi. Uning yuzasi iloji boricha elimli qoplama (grunt) bilan ishlov berilgan bo'lishi zarur. SHunda uning sathiga guash bo'yog'ini yaxshi surtish mumkin bo'ladi. Guash ko'pincha grafik ishlarni, bezaklarni, plakatlarni ishslashda va qisman rangtasvirlarni bajarishda foydalilaniladigan, suv qo'shib ishlatiladigan, tez quriydigan bo'yoqdir. U bilan tasvirlar bajarishning murakkabligi shundaki, bo'yoq surtilgan paytida to'q, qurigandan keyin esa ochlashib ko'rinishidir. SHu jihatini hisobga olib turilmasa ranglar orasidagi muvofiqlikni ushlab turish ancha qiyin kechadi. Buning uchun odatda har bir surtiladigan asosiy ranglar alohida-alohida maxsus idishchalarda tayyorlanib olinib, so'ng unga bir oz boshqa qo'shimchalar aralashtirib tasvir ishlanadi. Ranglarni ishlatishda, uning to'q-ochligi, rang tuslarining qanday topilganini doimo tekshirib, bilib turish uchun bir bo'lak qog'ozga tayyorlangan aralashmani surtib aniqlab, so'ng qo'llansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Guash bo'yog'ida juda ko'p o'tmish rassomlari ham asarlar yaratganliklari ma'lum. Ularning ajoyib-ajoyib natyurmort, manzara, teatr bezaklari, portret, plakatlari jahon tasviri san'ati xazinasidan o'rin olgan. Ammo, shunisi borki, bu nozik, saqlanishi ancha qiyin bo'lgan ishlarning ayrimlari, ayniqsa quyuq qilib ishlanganlarining bo'yoqlari o'chib, to'kilib ta'mir talab bo'lib qolganligi sir emas. Guash bo'yog'ida tasvirlarni bajarganda iloji boricha har bir rang tusi uchun alohida-alohida mo'yqalam tutgan ma'qul. SHunda ranglarni tiniq va toza, jozibali chiqishig'a erishiladi. Mo'yqalamlarning turli o'lchamlardagisi, va yumaloq hamda. yapaloq ko'rinishdagaridan foydalilaniladi. Ayniqsa, yapaloq mo'yqalam bezak ishlarida hamda tezkor ranglavhalarni ishslashda juda qulaydir. Guash

bo‘yog‘ida ranglavha va ayniqsa portretlar hamda odam tana qismlarini tasvirlash, nozik rang tovlanishlarini berish qiyin ishdir. Buning uchun ancha muncha mahorat, bilim, tajriba kerak bo‘ladi. Tasvir ishlashning yo‘l-yo‘rig‘i, usullarini puxta zgallah esa ko‘p amaliy mashg‘ulotlarni talab etadigan jarayondir.

Katta-katta monumental asarlarning eskizlari hamda kompozitsiya loyihibalarini, bayram munosabati bilan tayyorlanadigan suratlarni ham guashda bajarish qulaydir. U bilan keng qamrovli, mahobatli tasvirlar tez ishlanadi.

Rangtasvir ustalarining asarlarini kuzatar ekanmiz, ularning har biri texnologiyasi hamda uslubi jihatidan naqadar rang-barang ekanligini ko‘ramiz va rassomlar mahoratiga tan beramiz. CHunki ijodkorlar bo‘yoqning tasvir imkoniyatlarini ustalik bilan qo‘llaganlar. Asarlarning biri quyuq bo‘yoq qatlamidan foydalanib ishlangan bo‘lsa, boshqasi esa juda nozik, yupqa qatlamda bajarilgan. SHunday asarlar xam borki, ular murakkab aralash texnikada bajarilgan. YA’ni ham akvarel, ham guash texnologiyasi ustalik bilan qo‘llangan. Bunday mahoratli ishlangan asarlar qatoriga rus rassomlari V.Serov, K.YUon, V. Kustodievlarning ijod namunalarini qo‘shishimiz mumkin. SHunisi ham qiziqarlik, ayrim rassomlar akvarel bo‘yog‘ida yaratgan asarlarida guashning faqat oqini ishlatganlar va bu yaxshi samara berganligi ko‘rinib turadi. Bunday asarlarga

S.Gerasimov ijodiga mansub ishlarni misol qilib ko‘rsatishimiz mumkin.

Guash, bo‘yog‘ining keyingi paytda yangi kashf etilgan turi ham mavjud bo‘lib, uning nomi «fluorescentli guash» deb ataladi. Uning ijobiy tomoni sun’iy nur tushirilganda yorqinlik kasb etib, «yal-yal» yonib ko‘rinishidir. CHunki uning ximiyaviy asoslari ultrabinafsha, binafsha, ko‘k, yashil nurlardan g‘ayrioddiy yorqin va tabiatdagidan ikki-uch marta kuchli rangda tovlanib ko‘rinadi. SHu sababdan bunday bo‘yoq turi teatr bezakchiligidagi keng qo‘llanmoqda. Uning ta’sirchan yarqirab ko‘rinishi uchun odatda kvars lampalari nuridan ham foydalanish rasm bo‘lmoqda.

O‘quv-mashq ishlarni bajarishda, ayniqsa natyurmortlarni ishlashda guaç bo‘yog‘idan foydalanshp juda xam qo‘l keladi. Uni moybo‘yoq tasvirlar ishlashdan avval o‘rganilsa maqsadga muvofiq keladi. SHuningdek turli kompozitsiyalarning eskizlarini, o‘quv-mashq namunalarini guash texnikasida bajarish qulaydir. U bilan katta-katta sathlarni yaxlit qilib bo‘yash, tez ishslash mumkin.

Moybo‘yoq rangtasvir texnikasi

Moybo‘yokda tasvirlarni ishlash rassom uchun xam, endi o‘rganayotgan talaba uchun ham juda qiziqarli mashg‘ulotdir. Ammo bu mashg‘ulotning jiddiy qiyinchiliklari ham mavjud bo‘lib, u moybo‘yoq rangtasvir texnologiyasi bilan ham bog‘liq. CHunki moybo‘yoq bilan ishlash ma’lum tayyorgarlikni talab etadi. Ularga bo‘yoqlarni tanlash, ish uchun sath (mato) ni tortib tayyorlash, uni qoplama

(grunt) bilan yopish, mo‘yqalamlarni tanlash, eritgichlarni tanlab olish kabi zarur tadbirlarni kiritish mumkin. Moybo‘yoq tasvirlar ishlashni o‘rganish natyurmortlarni chizib mashq qilish orqali o‘zlashtirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Moybo‘yoqli natyurmort rangtasvirini ishlash jarayonining ayrim tomonlari akvarel texnikasiga o‘xshash. CHunki bunda xam avval qalamtasvir chizib olinadi. Agar suvbo‘yoqda ishlash uchun tasvir mukammalroq, mayda detallari bilan batafsil chizib olinsa, moybo‘yoqda ishlash uchun esa chizmatasvir umumlashtirilib eng asosiy narsalar aks ettiriladi. Buning sababi, moybo‘yoqda ishlash jarayonida batafsillik mo‘yqalamda ham bajarilishi mumkinligidandir. Moybo‘yoqda biror rangni ochlashtirish uchun unga oq rang kerakli darajada qo‘shiladi. SHunisi ham borki, oq rang qo‘shilgach, bo‘yoqning yorqinligi ma’lum darajada kamayadi. Buni o‘quv mashqlarini bajarish jarayonida albatta hisobga olish lozim. Akvarel texnikasi kabi jihatlardan biri ish jarayonini asosiy uzoq muddatli vazifani boshlashdan avval ranglavha, chizmalavhalar ishlab olinishidir. SHunda bo‘lajak rangtasvirning asosiy xususiyatlarini tajriba qilib ko‘rib o‘rganish, asosiy ishda uni qo‘llash mumkin bo‘ladi.

## **7-mavzu. Uslubiy jihatdan simmetrik va asimmetrik kompozitsiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari (2 soat)**

Moybo‘yoq tasvirlarini ishlash uchun maxsus ashylardan foydalaniladi. Ular romga tortib tayyorlab, qoplama surtib olingan (gruntlangan) mato, moybo‘yoqlarning kerakli xillari, bo‘yoqtaxta (politra), mo‘yqalamlarning turlicha kattalikdagi xillari, «mastixin» va eritgichlardan iboratdir.

Romga tortilgan mato qanday tayyorlanganligi tasvir sifatini belgilaydigan omillardan biridir, desak xato bo‘lmaydi. Uning qoplamasini (gruntini) ikki xil tarzda tayyorlanishi mumkin. Biri moyli qoplama bo‘lib, u quyidagichadir: 5 foizli elim (jelatin, baliq yoki duradgorlik elimi) aralashmasi shunga teng hajmdagi bo‘rga qo‘shiladi. U bilan mato sathi qoplanadi. Bir marta surtilgandan so‘ng qoplama bo‘yoq qatlami tayyorlab olinadi. U quyidagi tarkibda, ya’ni - maxsus oqartirtirilgan (oftobda toblangan) rangtasvir yog‘i, quruq oq bo‘yoq kukunidan qo‘shib tayyorlangan aralashma bo‘ladi. YOg‘ va kukunning nisbati shunday bo‘lishi kerakki u tayyor, maxsus idishga solib chiqariladigan moybo‘yoqlardan suyuq bo‘lmasin. SHunda uni bemalol mato sathiga «mastixin» bilan tekis qilib surtib chiqish mumkin bo‘ladi. 1-2 hafta quritilgach g‘adir-budir erlari qumqog‘oz bilan yaxshilab tekislanadi va skipidar aralashtirilgan moyli qoplama yassi, katta mo‘yqalam («fleys») bilan tekis qilib bo‘yab chiqiladi. Bunday usulda tayerlanadigan mato 2-3 oy mobaynida quritiladi. U saqlanadigan joy iliq va quruq

bo‘lishi shart.

«Elimli qoplama» deb yuritiladigan qoplamaning ikkinchi xili quyidagicha tayyorlanadi: 1 l. suvda 50-60 gr. jelatin eritiladi va unta 15 gr. glitserin qo‘shiladi. U matoga 1-2 marta surtiladi. Birinchi marta surtilgani qurigach qumqog‘oz bilan mato usti tekislanib olinadi, so‘ng ikkinchisi surtiladi. SHundan so‘ng elim aralashmasi bo‘r va oq bo‘yoq kukuni bilan teng nisbatlarda 40 S darajali issiqda eritiladi. Agar uning tarkibi quyuq bo‘lib qolgudek bo‘lsa, o‘sha elim aralashmasidan qo‘shiladi. Bunday qoplama 2-3 marta qavatma-qavat qilib surtiladi. Ular oralig‘ida qurishi uchun ma’lum vaqt bo‘lishi shart.

Qoplamalar yana ma’lum rang tusida ham tayyorlanishi mumkin. Ular ko‘proq ijodiy ishlarni bajarishda va kompozitsiya yaratish jarayonlarida qo‘l keladi. Moybo‘yoqda o‘quv-mashqlarni bajarishda rang xillaridan ham unumli foydalanish talab etiladi. Vazifalarni ishlaganda juda ko‘p rang xillaridan bilibilmay ishlatish yaxshi samara bermaydi.

Tabiatda ettita asosiy rang (bo‘yoq) borligi ma’lum. Ular qizil, noranji, sariq, yashil, havo rang, ko‘k, binafsha ranglardir. Bo‘yoq aralashtiriladigan taxtada (politrada) bo‘lishi juda zarur rang xillari esa qizil, sariq, ko‘k bo‘yoqdir. CHunki ularni boshqa qolgan asosiy rang-tuslar vositasida hosil qilib bo‘lmaydi. Bularning aralashmasidan juda ko‘p, deyarli barcha ranglarni chiqarish, hosil qilish mumkin. Ulardan hatto qora rang tusini ham topish mumkinligi sir emas. Faqat qaysi rangni bir-biriga qancha miqdorda aralashtirishni bilish kifoya. Buning uchun esa albatta tajriba va uquv bo‘lishi kerak.

SHuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, tabiatda absolyut oq va absolyut qora ranglar mavjud emas. Ularning barchasi qandaydir bir rang tovlanishida bo‘ladi. Masalan, qoraning jigarrangta, ko‘kka, yashilga moyil ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Oq rangning turli nozik tuslarga moyilligi ham tabiiy. Bunday rang va tuslarning hamda ularning to‘q-ochliklarini topib tasvirlash uchun moybo‘yokda ishslash texnikasi juda qulaydir. SHu imkoniyatlarning kengligi bilan u boshqa bo‘yoq turlaridan ajralib turadi.

Moybo‘yoq texnikasida rangtasvirlar bajarganda mo‘yqalamalarning qanday turlari va o‘lchamlardagilarini ishlatish ham muhimdir. Ularni tanlay bilish ko‘p foyda keltiradi. Ma’lumki natyurmortlarni, katta ishlarni bajarishda yapaloq va dag‘al mo‘yqalamalarni qo‘llash ish sifatini, ta’sirchanligini ta’minlaydi. Moybo‘yoqlarga suyultiruvchi, erituvchi vositalar qo‘shib ishlatiladi. Ular moyli va moyi kamaytirilgan bo‘lishi mumkin. Moylirog‘i bo‘yoqni sekin qurishi uchun yaxshi vosita bo‘lib, u bilan foydalanilgan paytda rangtasvir sekin quriydi. SHu sababli uzoq muddatda bajariladigan tasvirlarni ishslashda qulaylik yaratadi. Bunday eritgichlarga ba’zan lak ham aralashtirib ishlatilishi mumkin, shunday qilinganda ishning bo‘yoq qatlami tezroq quriydi va bo‘yoqning moyi matoga

shimilib ketishining oldi olinadi.

SHuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, moybo'yoq texnikasida rang qoriladigan maxsus taxtacha (politra) ning yuzasida bo'yoqlarni qanday joylashtirish masalasi ham muhim. Unda bo'yoqlar issiq-sovuq ranglarga ajratib, shu bilan birga to'q-ochligiga qarab ajratib joylashtirilishi mumkin. Oq bo'yoq odatda o'rtada yoki ranglar qatorining boshlanishida bo'ladi. Agar har safar bir xil joylashtirilsa, rassom shunga o'rghanadi va kerakli bo'yoqni darrov topib ishlatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Moybo'yoqda tasvirlar ishlashning juda ko'p o'rghanilishi kerak bo'lgan tomonlari bor. Ularning barchasi ko'p mashq qilish orqali o'rghanib olish imkonini beradi. Tajriba nazariy va amaliy tomondan mutazam mashq qilish natijasida oshadi. Bunda maxsus adabiyotlarni mutolaa qilish ham yaxshi yordam beruvchi vositadir.



B. Tojiev. "Baxor lolalari"






R.Axmedov. "Nigora portreti" 1976 y.



**N. Abdusalomxo'jaev. "Xovli"**



**N. Abdusalomxo'jaev. "Xumson qishlog'i"**



B.Tojiev. "Atirgullar" natyurmort

## **8-mavzu. Uslubiy o‘zgarishlar va kompozitsiyaning rivojlanish jarayoni.**

### **Uslubning kompozitsiyada vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgarishi**

#### **(2 soat)**

Kompozitsiyaning "turg‘un" va "dinamik", "ochiq" va "yopiq" xillari mavjud. Kompozitsiya tuzish ma’lum "qonun" (kanon)lar bilan belgilangan va chegaralangan. Bu esa kompozitsiya ifoda vositalarining torayishiga olib kelgan. Uyg‘onish davrida "turg‘un" va "yopiq" kompozitsiya, barokko san’atida "dinamik" va "ochiq" kompozitsiya ustuvorlik qilgan. San’at tarixida qonunlarga bo‘ysunib yaratilgan kompozitsiyalar va erkin kompozitsion usullarga asoslanib kompozitsiya yaratish harakatlari birday muhim rol o‘ynagan. Uyg‘onish davrida kompozitsiyani ilmiy asoslashga intilish kuzatiladi. Tasviriy san’atning har bir turi o‘ziga xos kompozitsion uslublarga ega. Masalan kitob bezagi (rasm) mahobatli devoriy rassomlik kompozitsiyasidan farq qiladi. Shuningdek, kompozitsiyani idrok qilish ham turlicha bo’lishi mumkin. Masalan haykaltaroshlik asarlaridan relyefni faqat old tomondan ko’rish mumkin. Aksincha, mahobatli yodgorliklarni esa aylanib tomosha qilish lozim. Haykaltarosh asar yaratayotganda kompozitsiya qonunlarini e’tiborga olishi kerak. Tasviriy san’atda ko’p shakl (figura)li kartina va haykallar ham kompozitsiya deb ataladi. Me’morlikda — kompozitsiya (mujassamot) bino (inshoot va ularning majmualari)ning tuzilishi, vazifasi va g’oyaviy badiiy jihatlari birligi va shaharsozlikdagi o’rnini ta’minlashdan iborat; kompozitsiya butun bir shahar yoki me’moriy ansambl, alohida bino yoki inshootning tashqi qiyofasi bilan ichki xonalari, tuzilishi bilan bezaklari, rangi, loyihasi va qurilishini aniqlaydi, atrof muhit bilan uyg‘unlashishi me’moriy kompozitsiyaga kiradi. Bu esa me’mordan katta mahorat talab etadi. Adabiyotlarda kompozitsiya — asarni badiiy shakllantirishga xizmat qiladigan turli qismlarning holati, o’zaro bog’liqligi, voqeа, harakter-obrazlar, lirk chekinishlar, tafsilotlar bayoni va shu kabi ma’lum maqsadga bo’ysundiriladi. Asar kompozitsiyasining yaxlitligi uning asosiy shartidir. Ortiqcha personaj, epizod va detallar asar qimmatini pasaytiradi. Shuning uchun ham badiiy asarda hech qanday yetishmovchilik ham, ortiqchalik ham bo’lmasligi kerak. kompozitsiyaning o‘ziga xosligi syujet unsurlarining qanday tartib bilan joylashtirilishiga, syujetdan tashqari unsurlar (lirk, falsafiy-publisistik chekinishlar, qo’shimcha epizodlar) ning boryo’qligiga, peyzaj, portret, psixologik tasvir, muallif tavsifi kabi vositalarning me’yori va tartibiga bog’liq. kompozitsiya yaratish usuli va uslublari turlituman. Qadimdan kompozitsiyani asar g’oyasi bilan uzviy bog’liq holda tushunib kelangan. kompozitsiya asarning shunchaki tuzilishi emas, balki shu

tuzilishning maqsadi, uning nima asosida tuzilganligidir. kompozitsiya asar g'oyasiga bog'liq. Tanlangan obraz yoki voqeа asarga kiritish uchun muvofiqmi yoki yo'qmi — buni faqat yozuvchi aytmoqchi bo'lган gapga nisbatan aniqlash mumkin. Bu ham kompozitsiyaning muhim bir tomoni. kompozitsiya shu jihatи bilan asarda mazmunning qay darajada mazmundorligini ko'rsatuvchi muhim omillardan. Musiqada — 1) musiqa asarining tuzilishi; 2) kompozitor ijodining mahsuli.

Kartinada xuddi harakatlanayotgandek ko`rinadi: Agar kartinada harakat yo`nalishi bo`yicha bitta yoki bir nechta diogonal chiziqlardan foydalanilsa; Agar harakatlanayotgan ob'ekt oldida bo`s sh masofa qoldirsak; Agar harakatni xarakterni juda aniq olib beruvchi kerakli kulminatsiya tanlansa. Bundan tashqari harakatni faqat bir momentini emas, balki uning harakatlarini bosqichma-bosqich bersak ham tasvir harakatlanayotganga o`hshab ko`rinadi. Masalan, qadimgi Misr releflarida har bir figura aniq bir holatda qotib qolgan, lekin kompozitsiyani aylana holatida tomosha qilsak harakat ketma-ketligini ko`rishimiz mumkin. Bunda tasvir harakatlanayotganga o`hshab ko`rinadi. Asarni yaxlit holda tomosha qilsagina harakatni sezishimiz mumkin, harakatning bo`lak momentlarida u sezilmaydi. Harakatlanayotgan ob'ektning oldidagi ochiq masofa harakatni fikran davom ettirish imkoniyati tugdiradi. Aks holda ob'ekt qogoz sathining chekkalariga juda yaqin qilib tasvirlansa, xuddi harakat to`htab qolgandek tuyuladi. Shuningdek harakatni rasmdagi chiziqlarning yo`nalishi orqali ham berish mumkin. Masalan, barcha chiziqlar qog`oz sathining chuqurligiga yo`nalgan. Bunda qahramonni eng kuchga to`lgan vaqtini tasvirlasak harakatning ta'sirchanligi ortadi. Shu bilan birga harakat hissini ob'ektning silliq bo`yalgan foni noaniq konturlari ham berishi mumkin. Fondagi qo`llagan vertikal va gorizontal chiziqlar harakatni to`htatib qo`yadi.

Harakat yo`nalishini o`zgarishi esa harakatni tezlashtiradi yoki sekinlashtiradi. Statikani berish qoidasi. Quyidagi sharoitlarda kompozitsiya static hisoblanadi. Agar kartinada diagonal yo`nalishlar yo`q bo`lsa; Agar ob'ektlar tinch (statik) pozada tasvirlangan bo`lsa, harakatning kulminatsiyasi bo`lmaydi; Agar kompozitsiya simmetrik, muvozanatda yoki oddiy geometrik sxemalar (uchburchak, aylana, oval, kvadrat, to`g`ri to`rtburchak) asosida qurilgan bo`lsa. Tinchlik hissi san'atning asarida yoki boshqa sharoitlarda paydo bo`lishi mumkin. Masalan, K.Korovinning "Qishda" kartinasida diagonal yo`nalishlarning ko`pligiga qaramay, changi qo`shilgan ot tinch turibdi, undagi harakat quyidagi sabablarga ko`ra sezilmaydi: kartinaning kompozitsion va geometrik markazi bir-biriga mos, kompozitsiya muvozanatda va otning oldidagi ochiq sathda daraxt tasvirlangan. Syujetli - kompozitsion markazni aniqlash. Rassom kompozitsiya yaratish ekan, kartinada eng asosiysi nima bo`lishini va bu asosiy syujetni ya'ni "mazmun

markazi" deb ataluvchi syujetli - kompozitsion markazni qanday ajratib ko'rsatish to'g'risida o'yashi lozim.

## **9-mavzu. Asar ichidagi elementlar o'rtasida muvozanatni ta'minlash.**

### **Kompozitsion nisbiyatni ishlab chiqishda uslubiy tamoyillar (2 soat)**

Akademik rangtasvir san`ati XVII asrda paydo bo`lgan tasviriy san`at yo`nalishi. Akademiklik mumtoz san`ati bo`lib, klassitsizm oqimimning rivojlanishi natijasida shakllangan. Akademiklik qadimgi va Uyg`onish davri tasviriy san`ati an`analariga asoslangan, ammo yanada rivojlangan, tizimlashtirilgan, yaxshi rivojlangan ijro tehnologiyasi va texnikasi asosida kompozitsiyani qurishning maxsus qoidalariga ega asar. Akademiklik ideallashtirilgan tabiat, dabdaba va yuqori texnik mahorat bilan ajralib turadi. Jamoatchilik tushunchasida akademizmbu yuqori estetik zavq tuyg`usini uyg`otadigan klassitsizmning ba`zi xususiyatlariga ega, yuqori sifatli va benuqson ijrodagi realistik asar. Akademiklarning asarlari ko`pincha juda aniq va sinchkovlik bilan ishlangan. Maxsus texnikalar, kompozitsiya sirlari, ranglar uyg`unligi, ramziy elementlar va boshqalar tufayli akademiklarning asarlari u yoki bu sahnani eng aniq va to`liq ifodalaydi.

XIX-asrda akademizm romantizm va realizm elementlarini qamrab ola boshladi. Eng mashhur akademik rassomlar: Karl Bryullov, Aleksandr Ivanov, Sayohat san`ati ko`rgazmalari uyushmasining ko`plab rassomlari, Jan Ingres, Aleksandr Kabanel, Uilya`m Bugero, Pol Delaroshe, Jan Gerom, Konstantin Makovskiy, Genrik Semiradskiy va boshqalar. Akademiklik bugungi kunda rivojlanmoqda, ammo endi u qadar keng tarqalgan emas. Agar ilgari akademiya ommaviy tomoshabinlar uchun eng tushunarli bo`lganligi sababli tasviriy san`atdagi etakchi va hukmron yo`nalishlardan biri deb da`vo qilgan bo`lsa, zamonaviy akademizm endi o`tmishning eng buyuk rassomlarining akademik san`ati egallagan rolni egallamaydi. Zamonaviy akademik rassomlar: Ilya Glazunov, Aleksandr Shilov, Nikolay Anoxin, Sergey Smirnov, Ilya Kaverznev, Nikolay Tretyakov va boshqalar.



*I-rasm. Yan-Jak Shriring  
“Jan Darkni inglizlarga qarshi yurishi” 1887 y.*

Akademik san`at yoki akademizm - bu Yevropa san`at akademiyalari ta`sirida yozilgan asar, haykaltaroshlik va arxitektura uslubi. Aniqrog`i, akademik rangtasvir san`at bu neoklassik va romantik oqimlar doirasida amalda bo`lgan Fransiya Tasviri san`at akademiyasi me`yorlari ta`sirida bo`lgan san`at va rassomlar hamda bu ikki harakatdan keyin ularning har ikkala uslublarini sintez qilishga urinishida paydo bo`lgan san`atdir. Uilyam-Adolf Bugero, Tomas Kuture va Xans Makart asarlarida eng yaxshi aks ettirilgan. Shu nuqtai nazaridan, u ko`pincha "akademizm", "badiiy dabdaba" (pejorativ tarzda) va "eklektizm" deb ataladi va ba`zan "tarixiylik" va "sinkretizm" bilan bog`lanadi. Akademik rangtasvir san`at Evropa akademiyalari ta`sirida yaratilgan rasm va haykaltaroshlikni o`z ichiga oladi, bu davrda ko`plab rassomlar rasmiy ta`lim olgan. Akademik rangtasvir san`at asosan adabiy, mifologik va tarixiy asosli, maqbul yoki kerakli mavzularning kanoniga sodiqdir. Uning rassomlari oddiy yoki oddiy narsalarni tasvirlashga qiziqish bildirmadilar. Akademik rangtasvir san`at realistik emas, idealistikdir.

Uslug nuqtai nazaridan akademik san`at Aristotel ideali va voqelikka tanlab taqlid qilish mimesis ("mimesis" - taqlid qilish atamasi antik davrda paydo bo`lgan) idealini tarbiyalagan. Ajoyib mahorat bilan ranglar, yorug`lik va soya shakllari kvazi-foto-realistik tarzda yaratilgan. Ba`zi rasmlarda "jilolangan qoplama" ko`rsatilgan, bu erda siz endi tugagan ishda cho`tka izini ko`rmaysiz. Ushbu badiiy ideal XIX-asrning o`rtalarida fotografiya ixtirosi bilan o`zining

poydevoriga aylandi. Neoklassitsizm va romantizm ta`sirida bo`lgan fransuz tasviriyl san`at maktabi uslubga alohida ta`sir ko`rsatdi. Keyinchalik, akademik san`at bu ikki uslubni sintez qildi, bu Uilyam Adolf Bugereau, Tomas Couture va Hans Makart asrlarida juda aniq ko`rinadi. San`atning keyingi uslublari, xususan, impressionizm paydo bo`lishi bilan akademik san`at nafratlandi va "eklektizm" sifatida rad etildi. XX-asrning boshidan oxirigacha ko`pchilik san`atshunoslar uning ma`nosini unchalik katta emasligiga ishonishgan, shuning uchun u deyarli tilga olinmagan va muzey omborlarida g`oyib bo`lgan; ba`zan ularni kamsitib "art-pompers" deb atashgan. asarning akademik uslubi, shuningdek, milliy sotsialistik san`at siyosati tomonidan mutlaq standartga ko`tarilganligi sababli obro`sizlandi. 1960-yillarga qadar faqat bir nechta yoshi katta rassomlar unga sodiq qolishdi. Faqat 1990-yillarga kelib, fin de siècle akademik san`ati asta-sekin "qayta kashf qilindi" va o`sha paytdan beri tobora ko`proq qadrlanib bordi. Rantasvir usttalari o`z yo`lidan ketib, o`z maskanlarini aks ettirib, shubha ostiga qo`yan bo`lsa, tarixiy kino, xususan, sandal plyonkasi akademiyaning o`tmishni tiklashga bo`lgan tashnaligini davom ettirdi. Fransuz akademizmi; Fransuzcha "pompier" nomining kelib chiqishi - italyancha "o`t o`chiruvchi" - noma`lum: u o`t o`chiruvchilarining dubulg`asiga o`xhash klassik xudolar va qahramonlar figuralari dubulg`asidan kelib chiqishi yoki xavfsizlik vazifalarini bajaradigan bir xil o`t o`chiruvchilarni ko`rsatishi mumkin. Ko`rgazmalar paytida, rasmiy salonlarda oching yoki Charlz Glerning davrasidagi rassomlarga, Pompey rasmiga taqlid qilish tarafdarlariga murojaat qiling yoki nihoyat, ko`plab dabdabali va ritorik tasviriyl tasvirlarga murojaat qiling. XVIII asrda vujudga kelgan va XIX asrning birinchi yarmiga qadar davom etgan neoklassitsizmning badiiy oqimi o`z uslubining oqilona qat`iyligida maktablarda o`qitishning birinchi zarur sharti bo`lib, o`zining mazmuniga ko`ra o`z mazmuniga ko`ra o`qitish usulini taklif qildi. Jamiyatning endi ko`rinmaydigan tabiatini va haqiqiy hayotiga, balki badiiy mahsulotlarga taqlid qilish, o`sha uzoq o`tmishning tarixi va afsonalari, u uyg`unlik va ideal go`zallik namunasi sifatida belgilagan. Frantsiyada Devid san`atining etakchi namunasi - to`g`risi, shaxsan har qanday akademiyaga qarshi - so`ngra talaba Ingres konsensusni etkazadi va taqlidchilarni ishlab chiqaradi. Rassomlarga mukammallik sertifikatini kafolatlash, ularga soddalik va ulug`vorlik, uyg`unlik va poklikka asoslangan uslubni berish maqsadida 1648 yilda Frantsiyada Qirollik rassomlik va haykaltaroshlik akademiyasi tashkil etilgan.



**2-rasm. Adrian de Leli “Qirollik akademiyasi” 1794-95**

Tarix akademiyasi; Birinchi san`at akademiyasi Italiyaning Florensiyada 1563 yil 13 yanvarda arxitektor Giorgio Vasarining ta`siri ostida Kosimo I de Medici tomonidan tashkil etilgan va uni San`at va san`at akademiyasi (San`at akademiyasi va kompaniyasi) deb atagan. San`at va Chizma chunki u ikki xil operatsion filialga bo`lingan. Kompaniya Toskanadagi har bir ishchi rassom qo`shilishi mumkin bo`lgan o`ziga xos korporatsiya bo`lsada, Akademiya tarkibiga faqat Kosimo saroyining eng ko`zga ko`ringan san`at arboblari kiritilgan va Medici shtatining butun badiiy faoliyatini nazorat qilish vazifasi yuklangan edi. Ushbu tibbiyot muassasasida talabalar “arti del disgno” (Vasariy tomonidan kiritilgan atama)ni o`rganib, anatomiya va geometriya akademik rangtasvi fanlari bo`yicha ma`ruzalar tinglashgan. Yana bir akademiya - San-Luka akademiyasi (rassomlarning homiysi Avliyo Luqo nomi bilan atalgan) o`n yildan so`ng Rimda tashkil etilgan. San-Luka akademiyasi tarbiyaviy funktsiyaga ega edi va Florentsiyadan ko`ra san`at nazariyasiga ko`proq qiziqardi. 1582 yilda Annibale Carracci rasmiy yordamisiz Boloniyada o`zining yuqori nufuzli Desiderosi akademiyasini ochdi; qaysidir ma`noda bu an`anaviy rassomlar ustaxonasiga o`xshardi, lekin u uni "akademiya" deb belgilash zarurligini his qilgani o`sha paytdagi g`oyaning jozibadorligini ko`rsatadi. San-Luka akademiyasi keyinchalik 1648 yilda Frantsiyada tashkil etilgan Qirollik san`at va haykaltaroshlik akademiyasi uchun namuna bo`lib xizmat qildi, keyinchalik u Tasviriy san`at akademiyasiga aylandi. Qirollik san`at va haykaltaroshlik akademiyasi "liberal san`at bilan shug`ullanuvchi janoblar" rassomlarini qo`l mehnati bilan

shug`ullanadigan hunarmandlardan farqlash maqsadida tashkil etilgan. Badiiy ijodning intellektual tarkibiy qismiga bunday e`tibor akademik san`atning mavzulari va uslublariga sezilarli ta`sir ko`rsatdi. Qirollik san`at va haykaltaroshlik akademiyasi 1661 yilda Frantsiyadagi barcha badiiy faoliyatni nazorat qilish maqsadi bo`lgan Lui XIV tomonidan qayta tashkil etilgandan so`ng, asr oxirigacha badiiy munosabatlarda hukmronlik qilgan a`zolar o`rtasida tortishuvlar paydo bo`ldi. Ushbu "uslublar jangi" Piter Pol Rubens yoki Nikolas Pussin to`g`ri namuna bo`ladimi degan ziddiyat edi. Pussin tarafдорлари "Poussinistlar" deb atalmish chiziq (disgno) aql-zakovatni o`ziga jalb qilgani uchun san`atda hukmron bo`lishi kerak, "Rubenistlar" deb atalgan Rubens izdoshlari esa rang (rang) san`atda hukmron bo`lishi kerak, deb ta`kidlaganlar. Uning histuyg`ulariga murojaat qilish. Muhokama XIX-asrning boshlarida Jan Auguste Dominik Ingres ijodiga xos bo`lgan neoklassik oqimlar va Evgeniya Delakrúa ijodiga xos bo`lgan romantizmga mos ravishda qayta tiklandi. San`atni tabiatga qarab o`rganish yaxshiroqmi yoki o`tmish ustalariga qarab o`rganish yaxshiroqmi, degan bahslar ham bo`lgan. Fransuz modelidan foydalanadigan akademiyalar butun Evropada shakllangan va frantsuz akademiyasining ta`limoti va uslublariga taqlid qilgan. Angliyada bu Qirollik akademiyasi edi. 1754-yilda tashkil etilgan Daniya Qirollik Tasviriy san`at akademiyasi milliy maktabni tashkil etish va chetdan keltiriladigan rassomlarga qaramlikni kamaytirish maqsadiga erishgan kichik mamlakatda muvaffaqiyatli namuna bo`la oladi. 1800-1850 yillardagi Daniya oltin davri rassomlarining deyarli barchasi u yerda o`qitilgan va ko`pchilik dars berish uchun qaytib kelishgan va Daniya san`ati tarixi boshqa mamlakatlarga qaraganda akademik san`at va boshqa uslublar o`rtasidagi keskinlik bilan kamroq ajralib turadi. Akademiyaga o`tishning oqibatlaridan biri XIX-asrning oxirgi yarmigacha (Qirollik akademiyasi uchun 1861) ko`pchilik akademiyalardan chetlashtirilgan rassom ayollarni tayyorlashdagi qiyinchilik edi. Bu qisman yalang`ochlik bilan ifodalangan nomaqbullik haqidagi xavotirlar bilan bog`liq edi. XX-asrgacha ko`pincha talaba qizlar uchun maxsus tadbirlar amalga oshirildi.

## V. KEYSALAR BANKI

Rangtasvir nazariyasi asoslari, perespektiva, yorug‘lar, yarim soyalar, reflekslar va soyalar nazariyasi hamda chizmatasvirning texnika va texnologiyasi xaqida tanishtirib borish;

Milliy natyurmortni tasviri san’at o‘qitishning zamonaviy texnologiyasini qo‘llanilishini tushuntirish;

3. Kelajakdagi mustaqil ishlar asosini yaratish uchun rassomlarga amaliy mashg‘ulotlar asosida zaruriy bilimlarni berish.

### Кейсни бажариш босқчилари ва топшириқлар:

- Кейсдаги муаммони келтириб чиқарган асосий сабабларни белгиланг(индивидуал ва кичик гурӯҳда).
- rassomarga амалий машғулотлар асосида зарурий билимларни бериш.

Rangtasvir turlari va sohalarini rivojlantirish metodikasi dasturi:

1. Tinglovchiga tasvirlanayotgan buyumlarning tekislik va kengliklariga tushayotgan yorug‘liklar va ulardagи tuslarning xususiyatlarini bir-biriga aloqadorligini hisobga olishni tushuntirish;

2. Rassomlarni chizmatasvir nazariyasi asoslari, perespektiva, yorug‘lar, yarim soyalar, reflekslar va soyalar nazariyasi hamda chizmatasvirning texnika va texnologiyasi xaqida tanishtirib borish;

3. Kelajakdagi mustaqil ishlar asosini yaratish uchun rassomlarga amaliy mashg‘ulotlar asosida zaruriy bilimlarni berish.

Mashg‘ulot paytida:

Tinglovchi va talabalarning asosiy va yuqori amaliy bilimlardan qoniqish hosil qilishlari uchun o‘quv ustaxonasi kerakli yorug‘lik va chizmatasvirda qo‘llaniladigan zarur jihozlar bilan ta’minlanishi kerak.

Ishlatiladigan ashyolar;

har xil yumshoqlikdagi oddiy grafitli qalamlar, ko‘mir, sous, sagina. planshet,qog‘oz, o‘chirgich.  
chizmatasvir ishlash uchun dastgoh (molbert).

**TOIFALASH JADVALI VA KONSEPTUAL JADVALINI** - guruhlarga qo‘llash, o‘rganilayotgan hodisa, tushuncha, fikrlarni ikki va undan ortiq jihatlari bo‘yicha taqqoslashni ta’minlaydi. Tizimli fikrlash, ma’lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

## **VI. MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI**

### **Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Mustaqil ta’lim tegishli o‘quv moduli bo‘yicha ishlab chiqilgan topshiriqlar asosida tashkil etiladi va uning natijasida tinglovchilar bitiruv ishi dirasida referat yoki kurs ishini tayyorlaydi.

Mustaqil ish talablari har bir tinglovchi o‘zi tanlagan rassom ijodi yoki badiiy asar taqdimotini tayyorlaydi.

Mustaqil ish taqdimoti quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘ladi:

- Sarvaraq;
- annotatsiya;
- mundarija;
- asosiy qism: nazariy tahlil;
- illyustratsiyalar ilovasi;
- xulosa:;
- glossariy;
- adabiyotlar ro‘yxati.

Keyslar banki;

Boshqa materiallar (fanni o‘zlashtirishga yordam beruvchi qo‘srimcha materiallar: elektron ta’lim resurslari, ma’ruza matni, glossariy, test, krossvord va boshq.)

Shuningdek, mustaqil ta’lim jarayonida tinglovchi kasbiy faoliyati natijalarini va talabalar uchun yaratilgan o‘quv-metodik resurslarini “Elektron potrfolio” tizimiga kiritib borishi lozim.

### **Mustaqil ish mavzulari**

O‘zbekiston tarixiy obidalari

Mustaqil O‘zbekiston

Eski shahar

Industrial Toshkent

XXI asr kommunikatsion texnologiyalar asri

Bunyodkorlik

Orol fojiasi

Biz yomon illatlarga qarshimiz

Sog‘lom tanda – sog‘ aql

Beg‘ubor bolalik

Kelajak

Mehnat  
O‘zbek bozori  
O‘zbek milliy hunarmandchiligi  
Mening zamondoshim  
Mening qishlog‘im  
Mening shahrim  
Ona shahrim Toshkent  
Obod mahalla  
Mustahkam oila  
Vatan himoyachilar  
O‘zbek milliy bayramlari  
Navro‘z – bayrami  
O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik bayrami  
O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiya bayrami  
Hotira va qadrlash kuni bayrami  
Amir Temur  
Jaloliddin Manguberdi timsolida  
To‘maris  
Alpomish dostoni  
Mirzo Ulug‘bek  
Al Xorazmiy  
Alisher Navoiy  
Buxoroda Xo‘ja Nasriddin  
Kamoliddin Behzod  
Ijodkor rassom  
O‘zbek milliy o‘yinlari  
Uloq (ko‘pkari)  
Qo‘chqor urushtirish  
Xo‘roz urushtirish  
Sport  
Musiqa  
Sharq taronalari  
Raqs  
Xiva lazgisi  
Talabalik orzusi  
Koinot  
Yil fasllari  
Besh tashabbus.

## VII. GLOSSARIY

**Antropometriya** (yunoncha so‘z «antropos» - odam, «metron» - o‘lchov ma’nosini bildiradi) – antropologiyaning bir bo‘limi hisoblanib, odam tanasining tuzilishi, asosiy harakat va holatini, tavsif o‘lchamlarini o‘rganadi. Antropometriya turli jinsdagi, yoshdagi, etnik jihatdan mansubligi va geografik regioniga qarab odamlar uchun o‘rta katta-kichik meyorlarini o‘rnatadi. Antropometriya asoslari, mahsulot va binolarni proeksiyalashda, ularning odamlarga loyiq ta’minlash maqsadida va ohir-oqibat qulay ishlatilishida va qulaylik yaratishda keng foydalilanildi.

**Badiiy konstruksiya** – loyihalsh faoliyatining alohida tarzdagi xilma-xil obektlari bo‘lmish sanoat va maishiy yo‘nalishdagi mahsulotlar, yirik seriyalarda sanoatlashgan uslubda ishlab chiqarilishi. Badiiy konstruksiya ob’ektlarining xarakterli xususiyati-ularning ishlanmasida injener-kosntuktor va texnologlarning qatnashishlari zarurligi. Rassom-konstruktur mahsulot ishlanmasi ustida, texnikaviy estetikaning, nazariy va metodologik bilimlariga tayangan holda ish olib boradi.

**Badiiy loyihalash** – uni tarkibiy qismiga kiruvchi badiiy konstruksiyaga nisbatan, mahsulotlarni ishlab-chiqarish jarayonida kengroq doirasidir. Uning ob’ektig, hozirgi paytgacha yig‘ilgan metodlar bo‘yicha ishlab chiqariladigan barcha mahsulotlar kiradi.

**Badiiy sifat** – mahsulotning inter’er vash u kabilar tashqi ko‘rinishida, afzallikkari, shakl va elementlar o‘lchamlarining o‘zaro uyg‘unligi, mutanosibligini, ritmik tuzilishi, fakturasini, rang va boshqa kompozitsion xarakteristikalarini aniqlaydi. Badiiy sifat asosiy ko‘rsatkichlaridan biri, odam uchun xizmat qiladigan predmet muhitining organik elementi sifatida, barcha xarakteristik shakllarni, mahsulotning asosiy g‘oya echimiga bo‘ysundirishdir.

**Badiiy uslub** (stil) – badiiy ijod doirasiga mansub bo‘lib, mavjud bo‘lgan qator umumiy tomonlarga ega me’morchilikda, san’at asarlarida, dizaynda tarixiy bosqichning u yoki bu davrlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Badiiy uslub ko‘pincha buyumlarning me’morchilik va badiiy asarlarida kompozitsion qurilishida namoyish etiladi.

**Dekor** (lotincha «dekor» so‘zidan – bezayman, ma’nosini bildiradi) – bezak elementlari va mahsulot bezagini to‘plami. Dekorning asosiy ko‘rinishlari: ornamentika, tasviriylar va arxitektura motivlari, bezakli qoplami. Rivojlangan dekor, dekorativ – amaliy san’at mahsuloti uchun xarakterlidir, ayniqsa o‘tmishda, uning shakliga atayin bezatish uchun kirtilgan element (detal)lar ko‘rinishida tez-tez chiqib turgan. Dekor xarakteri, bironta ustani buyumlarning go‘zallik mohiyatini, davr tasavvurlari orqali aniqlanadi.

**Dekorativlik** – shakl ta’sirchanligi shartlaridan biri, mahsulot hususiyati, uning shakl va siluet konfiguratsiya hosiyatlari, hamda materialning rangi, faktura va teksturasi bilan bog‘liqdir. Ko‘pincha dekorativlikni dekor elementlarining qo‘llanilishi, masalan ornamentika bilan bog‘lashadi. Lekan bu vaziyatda dekorativlik emas, balki mahsulot dekorativligi deyilsa, to‘g‘ri aytilgan bo‘ladi. Aslida dekorativlik barcha dekorlardan mahrum bo‘lgan ko‘pgina predmetlarda, masalan: radiopryomnik, avtomobillar, metallning ustki qoplami, kristallar, o‘simliklar bargi va boshqa narsalarda mavjuddir.

Mahsulotning dekorativligi, shaklning tartibga solinishi va mantiqiy konstruktivligi, ritmi, rangi, mutanosibligi, faktura vash u kabilarning tashkil etilishiga bog‘liqdir.

**Disgarmoniya** (yunoncha «harmonia» so‘zidan – garmoniya, uyg‘unlik, «dis» - old qo‘sishimcha bo‘lib, inkor etish ma’nosini anglatadi) – muvofiqlashmaganlik, shaklg barcha va alohida bo‘lgan xususiyatlari orasidagi qarama-qarshilik, masalan: mahsulotning ritmik tuzilmasi bilan uning rang echimi orasidagi ziddiyat. Shaklda disgarmonianing paydo bo‘lishi, uning badiiy sifatini pasayishiga olib boradi.

**Inter’er** (fransuzcha «interieur» so‘zidan – ichki ma’nosini bildiradi) – binoning ichki muhitining, funksional – estetik munosabatda, nisbatan yopilgan va tashkil etilganligidir. Inter’er xona to‘sinq sirtlari (devor, ship, pol) va uning barcha jihozlash va bezatish vositalari to‘plamidan tashkil topadi.

**Kompaktlik** (lotincha «compactus» so‘zidan – zich, g‘uj, yig‘ilganlik ma’nosini bildiradi) – shakl elementlarining joylashuvida maksimal zichligi. Kompaktlik darajasidan, mahsulotning quylganligi aniqlanadi.

**Kompleks loyihalash** – qator mahsulotlarning loyihalanishi, odamning ish faoliyatini muayyan jarayonidagi talablarni to‘liq ta’minlash; masalan, oshxonalar uchun jihozlar, maktab uchun mebel va hk. Kompleks loyihalashning maqsadi, odamlar uchun iloji boricha dam olishda, uyda, ishxonalarda qulaylikni, uyg‘unlikni va badiiy muhitni yaratishdir.

**Kompozitsiya** (lotincha «compositio» so‘zidan – o‘ylab chiqaraman, tuzaman, yarataman ma’nosini anglatadi) – mahsulotning muayyan maqsadga hizmat qiladigan tartibda joylashuvi va ularning muvofiqligi.

**Komponovka** (lotinya «compono» so‘zidan – tuzaman ma’nosini anglatadi) – turli elementlarning o‘zaro mos qilib joylashtirishning qidiriv jarayoni.

**Komfort** («comfort» - inglizcha so‘z bo‘lib) odamning ma’lum bir narsa yoki ba’zi buyumlar to‘plamidan oladigan barcha qulayliklar yig‘indisidir. Mahsulotlar qulaylikning talabiga to‘liq javob bersa, ular huzur-halovatli hisoblanadi. Bunday qulayliklarning yo‘qligi esa, ma’lum ish jarayoni muhitida diskomfortni yuzaga keltiradi.

**Konstruksiya** («constructio» lotincha so‘z bo‘lib – quraman ma’nosini anglatadi) mahsulot elementlarining o‘zaro bog‘liqligi, aloqadorligi. Konstruksiyaning hosiyati, asosan mahsulot elementlarining o‘zaro bog‘lanishida va o‘zaro joylashuvida aniqlanadi.

**Konstruksiya tipologiyasi** – mahsulot elemetlarining o‘zaro bog‘liqligini, konstruktiv klassifikatsiya tiplaridagi farqlari.

Konstruksiya klassifikatsiyasining asoslariga:

- 1) elementlarning bog‘lanish tipii (ajralmas, ajraladigan; yig‘iladigan va bo‘linadigan);
- 2) elementlarning o‘zaro munosabat tipii (turg‘un; kinetik);
- 3) ularning ulanish sxemasi va usuli; (yahlit; karkasli;, jildli; to‘plamli);
- 4) ma’lum mahsulotning boshqa buyumlar bilan bog‘lanish konstruksiya tipii (avtomnom; blokshanadigan);
- 5) funksional holatning tipii (statsionar; safarbar; ihcham);
- 6) konstruksiyaning asosiy va asosiy bo‘lmagan elementlarini o‘zaro munosabat tipii (ochiq; yopiq; yarim ochiq) va h.k..

**Tashqi ko‘rinish** – bunda, buyumning shakli idrok etish orqali tomosha qilinadi. Shabl elementlari buyumni ishlatish jarayonida idrok etish ham buyumning tashqi ko‘rinishiga kiradi. Mahsulotning idrok etilishida, unga estetik baho berilishi, tashqi ko‘rinish uchun yagona manbaadir.

**Texnik estetika** – ilmiy soha bo‘lib, predmet muhitini shakllanishi va rivojlanishi, odamlarning ish faoliyati jarayonida predmetli sharoit qonuniyatlarini o‘rganadi. Texnik estetikani o‘rganish spetsifik predmeti – bu odamlarning biologik va ijtimoiy mavjudod sifatida predmetli muhit bilan o‘zaro munosabatidir.

**Foydali effekt** – mahsulotlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘z o‘rnida ishlatishning natijasidir. Mahsulotning ishlatishda foydali effektning katta-kichikligi, bir qator talablarga amal qiladi: mahsulotning texnik mukammallik darjasи; antropometrik o‘lchovlarga munosibligi; ekspluatatsiya muhitida, uning konstruksiya va shaklning o‘zaro mosligi va hk.. Shunday qilib, foydali effekt mahsulot sifatini belgilashida asosiy ko‘rsatkichlaridan biridir.

**Foydalanish qulayligi** – mahsulotni o‘zining joyida oddiy, havfsiz va shu kabi ishlatilishi tushuniladi. Foydalanish qulayligi, mahsulotni transportirovka qilish, saqlash, yig‘ishtirish, ta’mirlash emas, uni faqatgina ishlatish, foydalanish jarayonida qo‘llaniladi. Foydalanish qulayligi, mahsulotni qurilishi va shakl orqali ta’milanishi, ularning antropometriya, ergonomika talablariga hamda ekspluatatsiyaning konkret sharoitda mutanosibligidir.

**Shakl** – mahsulotning muhitga mos qurilmasi, ya’ni nuqta, chiziq, qirra, sirt, burchak, shakl, hajm va boshqalarning aniq o‘lchamga ega bo‘lishidir.

**Sanoat** mahsulotlarida shaklning umumiyligi talablaridan biri barcha elementlarning kompozitsion qonuniyatlar asosida muvofiqligi.

**Shaklning ifodaviyligi** – mahsulotning badiiy ko‘rsatkichlaridan biri, bunda buyumning tashqi ko‘rinishi va tuzilishini o‘zaro munosibligi, maqsadga muvofiqligi aniqlanadi. Bundan tashqari, odamning emotsiyal kayfiyatiga ta’sir etishi ham muhim ahamiyatga egadir. Mahsulotning bunday ta’sir etish hususiyatlaridan biri – uning dekorativ echimini estetik fahimlanishidir.

**Ergonomika** - (yunoncha so‘z bo‘lib, «ergon» - ish, «nomos» - qonun degani) ilmiy-nazariy va ilmiy-eksperimental soha bo‘lib, odamning o‘zgarib turadigan muhitda, ma’lum ta’sirlanishini talab etuvchi har-xil jihozlar va ish faoliyati muhitida vositalarning odamga ta’sir qiladigan psixofiziologik faktorlarini o‘rganadi. Ergonomikaning nazarga oladigan va o‘rganuvchi asosiy faktorlariga har xil qo‘zg‘atuvchilarga odamning munosabati (reaksiyasi), ya’ni optik, tovushli, haroratlari va hk.. kiradi. Shu munosabat bilan, ergonomika odamning fiziologiya, psixofiziologiya bilimlariga tayanadi va loyhalanayotgan ob’ektlar shakliga birqancha talablarni aniqlab beradi.

**Estetik qimmati** – ma’lum mahsulot yoki predmetli muhitining odamlar estetik qarashlariga muvofiqligi. Estetik baholanayotgan ob’ektni, uning barcha hususiyatlarini umumiyligi va ular orasidagi har xil bog‘lanishlarning paydo bo‘lishi, birinchi tomondan odam, hamda ikkinchi tomondan ijtimoiy muhitini xarakterlaydi.

Umuman olganda, badiiy sifat odatda, mahsulotning estetik ahamiyati shartlaridan biri bo‘lib hizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### **I. Normativ-huquqiy hujjatlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi.–T.:O'zbekiston, 2018.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan "Ta'lif to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-sonli Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-sonli Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust "Oliy ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-sonli Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdag'i "Oliy ta'lifning davlat ta'lif standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 343-sonli Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 yanvardagi "Oliy ta'lifning Davlat ta'lif standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2001 yil 16 avgustdag'i "343-sonli qororiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi 3-sonli qarori.

### **II. Maxsus adabiyotlar:**

1. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsolieva. O'quv jarayonida innovatsion ta'lif texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2017.- 60 b.
2. Ishmuhamedov R, Mirsolieva M, Akramov A. Rahbarning innovatsion faoliyati. – T.: "Fan va texnologiyalar", 2019.- 68 b.
3. Коджаспирова Г.М. Педагогика в схемах, таблицах и опорных конспектах./ -М.:Айрис-пресс, 2016.

4. Натанзон Э. Ш. Приемы педагогического воздействия. - М, 2012. - 202 с.
5. Сергеев И.С. Основы педагогической деятельности: Учебное пособие. – СПб.: Питер, 2014.
6. Bobojonova G.I. Fazoviy san'atlarni xis qilish. – Т.: MRDI, 2007. - 26 b.
7. Yusupova N. Ranglarga yashiringan sirlar. -Т.: DAVR PRESS, 2010. - 152 b.
8. Xudayberganov R. Tasviriy san'atda rang. – Т.: TDSI O‘quv bosmaxonasi, 2004.
9. Xudayberganov R. Ranglar jilsi. – Т. TDSI o‘quv bosmaxonasi, 2009.
10. Bobojonova G.I. Fazoviy san'atlarni his qilish. – Т.: MRD, 2007. – 26 b.

### **III. Elektron ta’lim resurslari**

1. [www.edu.uz](http://www.edu.uz).
2. [www.aci.uz](http://www.aci.uz).
3. www.ictcouncil.gov.uz.
4. www.lib.bimm.uz
5. www.Zyonet.Uz
6. [www.sciencedirect.com](http://www.sciencedirect.com)
7. [www.acs.org](http://www.acs.org)
8. [www.nature.com](http://www.nature.com)
1. <http://www.kornienko-ev.ru/BCYD/index.html>.